

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek tili yo‘nalishi

447-guruh bitiruvchisi Bozorova Nodiraning

**“O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA LATIFA JANRI VA UNING
TAKOMILI” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: X. Sharafiddinov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Farg‘ona – 2013

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil –
yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.SABIRDINOV

Taqrizchi:

D. Teshaboyev

MUNDARIJA

Kirish.	3
I Bob. Latifa va uning janr xususiyatlari.	6
II Bob. Latifa janrining taraqqiyoti.	26
III Bob. Latifada an'anaviylik va yangi davr latifalari.	52
Xulosa	63
Adabiyotlar	65

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi sharofati bilan juda ko'p sohalarda ulkan yutuqlarga erishmoqda. Eng avvalo yurtboshimiz I.A.Karimov ma'naviyatimizga katta e'tibor qaratdilar. "Ma'naviyatni shakllantirishda bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil ta'lim tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki ota bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat ta'lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar"

Yoshlarimizni ta'lim tarbiya olishlari uchun barcha shart sharoitlar yurtimizda yaratib qo'yilgan. "Biz komil inson deganda eng avvalo ongi yuksak fikrlay oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz" deydi prezidentimiz. Shunday ekan xozirgi o'zbek yoshlarining imkoniyatlari jaxon yurtlaridan kam emas "Eng avvalo kafolatlangan ta'lim tarbiyaga yo'naltirish uchun o'zligimizni anglashni o'rganmog'imiz lozim. O'zlikni anglash milliy qadriyatlarni xurmatlash ona tilimizni qadrlash eng avvalo adabiyotimizga e'tibordan boshlanadi".

Shuning uchun eng avval o'zlikni anglash uchun o'z tariximizni bilmog'imiz lozim. Adabiyotimiz shakllanib ravnaq topib bugungi kungacha yetib kelguncha og'izdan og'izga o'tib xalq og'zaki ijodi bo'lgan.

Mustaqillik yillari insoniyat tarixida yangi sahifa ochdi. Ko'p yillar davomida zulum ostida yashagan xalqimiz ozodlik va tenglikka olib chiquvchi yo'lni ya'ni mustaqillik yo'lini tanladi. O'zbek xalqi bunday og'ir davrda o'z madaniyati xatto o'z tilini unitishgan edi, lekin mustaqillik sabab hamda mehribon yurtboshimiz I.A.Karimovning say-harakatlari tufayl i o'z madaniyat hamda tiliga ega bo'ldi. Har bir millatni, millat sifatida dunyoga tanituvchi kuch bu adabiyotdir. Adabiyot inson ongiga ta'sir o'tkazib uni manan komil inson bo'lishiga yordam beradi. Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodini to'plash va ilmiy asosda o'rganilishi 1900-yilning boshlarida boshlandi.

Xalq og`zaki ijodi bilan shug`ullanuvchi talantli olimlarning yetishuvi, o`zbek fol'klorini to`plash, ommalashtirishda qo`lga kiritilgan yutuqlar va bu sohada olib borilgan ilmiy ishlarning ajoyib natijalari madaniy yuksalishning yorqin samaralaridan biridir.

O`zbek xalq og`zaki ijodining ko`pchilik tur va janrlari yumor va satira xarakteridadir. Xalq og`zaki ijodini to`plash, o`rganish sohasida ko`p ishlar qilingan bo`lishiga qaramay, hali o`zbek fol'kloridagi yumor, satira masalasi chuqurroq tekshirilgan emas. Ko`p yillik mehnatlardan so`ng qisqa vaqt ichida o`zbek xalq og`zaki teatiri, xalq qiziqchiligining ayrim nomoyondalari va ular repertuarlaridan namunalar, askiya-payrovga bag`ishlangan ba'zi ishlar, maqolalardan tashqari, o`zbek fol'kloridagi yumor va satira haqida birorta jiddiyroq asar bosilib chiqqani yo`q.

O`zbek fol'klorida satira bilan yumor xalq og`zaki ijodining hamma tur va janrlari orasida suvdagi baliqdek suzib yuradi.

O`zbek xalq latifalari, hajviy laparlar, qiziqchilar repertuaridagi latifa xarakteridagi ajoyib hikoyalar, xalq dramalarining aksar qismi, taqlid-pantomimlar, askiya-payrov, chandishlar, topishmoqlar, maqollarning ko`chiligi xalq og`zaki ijodining yumor, satira turlaridir.

Biz bu ishimizda o`zbek xalqi o`zbek xalqi orasidagi mustaqillikkacha bo`lgan yumor, satira haqida, uni vujudga keltirish usul va uslubi, resurs hamda vositalari, yumor, sayiraga xos badiiy ijod tur va janrlari, ularning til xususiyatlari, sotsial mazmuni, epik-komik qahramonlar masalasi, ijro qilinadigan joy, xalq ko`ngil ochish usullari: xalq sayillari, to`y-bazm, ma'raka, turli mavsum va marosimlardagi odatlar, mehmonxona, gap-gashtak o`yinlari, mustaqillikgacha yaratilgan yumor, satiraning xarakteri, xususiyati, uning o`tmishdagilardan farq etadigan tomonlari hamda o`zbek adabiyotidagi roli kabi masalalarga to`xtalib o`tmoqchiman.

O`zbek fol'klori satira, yumor masalasiga oid faktik materiallarga boy bo`lishiga qaramay, bu haqda ilmiy-nazariy asarlar unchalik ko`p emas.

Men ishimga doir materiallarni XII asrdan XIX asrgacha bo`lgan manbalar,

olimlarning O`rto Osiyo xalqlari va o`zbek xalqi etnografiyasiga oid asarlari, xotira, esdaliklari hamda maqolalar yordami bilan xalq og`zaki ijodiga oid qo`lyozma materiallardan oldim.

XII asrdan XIX asrgacha bo`lgan manbalar shu davrlarda yashab ijod qilgan olimlarning ilmiy asarlari va shoirlarning badiiy asarlaridir.

XII asr muallifi Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`atit turk" asarida to`plangan xalq qo`shiqlari, maqol va hikmatli so`zlari orqasida insonning xushchaqchaqlik kayfiyatini ifodalaydigan to`rtliklar ko`p. Ulardan ov o`yinlari, mehnat qo`shiqlari, qish va yoz munozarasi xarakterli bo`lib, bu hol turkiy xalqlar orasida shodlik va xursandlik, xushchaqchaqlik kechinmalarini kulguli holda she'riy formada ifodalash juda erta boshlanganidan darak beradi. XII asr avtori Zamahshariy ham o`zining fors-tojik tilida yaratgan "Muqaddimatul adab" asarida o`zbek xalq qo`shiqlariga ta'rif beradi.

IV asrdan XIX asrgacha yashab ijod qilgan hamma o`zbek shoirlari, ayniqsa, Yaqiniy, Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Ahmadiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Xoja Mashrab, Gulxaniy, Maxmur, Kaltatoy, Nodira, Uvaysiy, Muqumiy, Zavqiy, Rojiy, Furqat, Muntazir, va boshqa shoirlar asrlarida xalq og`zaki ijodi satira, yumorning barakali ta'siri bordir. XIV asrning birinchi yarmida yashagan Nasriddin Buxoriddin o`g`li Rabg`ziy o`zining "Qissai rabg`uziy" asarida xalq og`zaki ijodidan, ayniqsa, uning latifalaridan keng foydalangan. Klassik o`zbek asarlarida sodda va murakkab tashbehtar, badiiy tasvir vositalari: lutf, qochirim, mutoyiba kabi so`z o`yinlari orqali adolat, insof, insonparvarlik, yaxshilik odob o`z ifodasini topgan. XIV-XV asr adabiyotida din, tasavvuf va jaholatga qarshi dunyoviy lazzatni qo`llash motivlari ustunlik qilishi bilan adabiyotga xalqchilik elementlari kuchayadi. Bu hol badiiy pryom va uslubini folklor stiliga yaqinlashtiradi. Yusuf Amiriyning "Chog`ir va bang munozarasi", Yaqiniyning "O`q va yoy munozarasi", Ahmadiyning "Sozlar munozarasi" asarlari o`zbek xalq og`zaki ijodining munozara, bahs, askiya-neyro xazil mutoyibalari ta'sirida yozilgan bo`lib, bu tur va janrlarning o`sha zamondagi holati

haqida fikr yuritish imkonini beradi. Nihoyat Alisher Navoiy "Xazonul moniy", "Hamsa" va boshqa asarlaridagi shayxlar, ikkiyuzlamachi munofiqlar, yashirin dushmanlar, ochko`z savdogarlar, zolim podsho va amaldorlar, baxillar va inson xarakteridagi boshqa salbiy illatlarni fosh etuvchi satira, yumorlari o`zbek xalq donoligi, zakovatining badiiy ifodasidir. Alisher Navoiy "Hamsa", "Majolis un nafois", "Mahbub ul qulib" asarlarida satira va yumorga o`z munosabatini ifodalab, uni bir-biridan farq etib ko`rsatgan bo`lsa, "Hamsa"ning deyarli hamma dostonlarida xalq ertaklari, maqol hikmatli so`zlardan foydalanadi va o`zbek tilining behisob boyliklarini namoish qiladi.

XIV-XV asrlarda tojik va o`zbek shoirlari orasida satira va yumorga qiziqish yana kuchaygan. Qisqa qilib aytganda latifaga aniqroq qilib aytganda kulgiga bo`lgan ehtiyoj qadim zamonlardan shakllangan. Albattada kulgi inson hayotida juda katta rol o`ynaydi.

Eng avvalo satira va yumorning asosiy maqsadi kulgu. Shunday ekan eng avvalo kulguga ta'rif bersak.

1 Bob. Latifa va uning janr xususiyatlari.

Latifa soʻzining lugʻaviy maʼnosi goʻzal, chiroyli va yoqimli deganidir, shundan kelib chiqib, latif chehra, latif harakat iboralari qoʻllanadi. Oʻzbek mumtoz sheʼriyati – gʻazaliyotida latofat shaklida ham koʻp qoʻllanadi. Xalq ogʻzaki poetik ijodidagi janrlardan birini ifodalash bu soʻzning terminologik maʼnosidir.

Latifa xalq ogʻzaki poetik ijodida mustaqil janr boʻlib, u oʻzining bir qator xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Farq qilish bilan birga, folklor asari sifatida, umumiy tomonlari ham bor. Masalan, folklorga xos boʻlgan ogʻzakilik, oʻzgaruvchanlik, badihaviylik, anonimlik, variantlilik kabi xususiyatlar latifaga ham xosdir.

Latifa turga mansubligi jihatidan qaralsa, lirik qa dramatik turlardan koʻra epik turga mansubligi etakchi jihatdir. Biroq dramatik xususiyatga ham qisman ega deb aytish mumkin boʻlgan latifalar ham mavjud. Bunda ikki kishining suhbat etakchilik qiladi. Lekin ogʻzaki shaklda shu ikki kishining oʻzaro suhbatini boshqa shaxs tomonidan aytib berilishi uni dramatik turga ham mansubligini yoʻqotadi va epik turga mansub boʻlib qola beradi.

Hajmi jihatidan latifalar kichik janr sanaladi. Bu ertak va xalq dostonlariga nisbatan qiyoslanganda, ertak va dostonidan kichikligi yaqol koʻzga tashlanadi. Latifa kichik janr emas, bu xalq ogʻzaki poetik ijodining boshqa janrlari, masalan, topishmoq, matal kabi janrlariga solishtirganda. SHundan kelib chiqib, latifani hajm jihatidan oʻrtacha janr deb belgilanishi mumkin – latifa hajman (hajmiga koʻra) oʻrtacha janrdir.

Latifa ijro usuliga koʻra hikoya qilinadi. Bu jihatdan u qoʻshiq janridan farqlanadi.

Soz, ya'ni musiqiy asboblardan bilan ijro etilmasligi ham uni qo'shiqdan, dostonidan farqlaydi. Latifada musiqiy ohangning tovush bilan ham, musiqiy asbob bilan ham ifodalanishi mavjud emas.

Latifa ijrosida hikoya qilinarkan ekan, u bir kishi tomonidan hikoya qilinadi. Demak, u bu jihati bilan xalq qo'shiqlarining duet, trio va kvartet bo'lib kuylanishidan keskin farq qiladi. Duet ikki kishining, ba'zan ikki yigitning, ba'zan bir qiz, bir yigitning qo'shiq ijrosidir. Trioda uch kishi qatnashadi. Ikki qiz, ikki yigit o'rtasidagi ijro kvartet deyiladi. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash ham mavjud bo'lib, bu faqat qizlar yoki faqat yigitlardan iborat jamoa bo'lishi ham mumkin, shuningdek, ular orasidagi birga kuylash bo'lishi ham mumkin. Bu xususiyatlar latifaga xos emas.

Latifa ommaviy janr. Maxsus latifa aytuvchi, professional ma'noda, alohida shaxslar bo'lmaydi. Latifani har bir odam o'ziga bir odamga aytib berishi, kuldirishi mumkin. Bu jihati bilan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ijrochilar, xususan, baxshilar tomonidan ijro etiladigan ertak va doston ijrochiligidan farqlanadi.

Latifa kattalarga ham, bolalarga teng darajada ekanligi uchun ham kattalar, ham bolalar folkloriga mansubligini ma'lum etadi.

Latifa umuminsoniy janrdir. U har bir xalq og'zaki poetik ijodida mavjud bo'lgan janrdir.

Latifalar qahramonlari barqaror holga kelib qolganligi tufayli ko'pincha latifa shu qahramon nomi bilan ham yuritiladi. O'zbek xalq poetik ijodida latifa janrining qahramoni afandi bir shaxsda ifodalanib, bosh xarf bilan Afandi atoqli ot sifatida anglashiladigan bo'lganligi tufayli "latifa aytib bering" ifodasi o'rniga "afandi aytib bering" ifodasi ham ko'p qo'llanadi. Bundan ko'rinadiki, afandi so'zida latifa, janr sifatidagi latifa ham anglashiladi. Bu o'rinda latifa – afandi tenglashib qolgan, ya'ni

bir tushunchani ifodalaydi. Tenglashishning omili tushunchadagi metanimiklikdir, ya'ni birga anglash, ma'lum janrni uning qahramoni bilan birga anglashdir.

Latifa ham, satira ham o'z vazifasi jihatidan ko'pgina umumiyliklarga ega. Latifa satira bilan uyg'unlashishi uning fosh etishida ko'rinadi. Satirada ijtimoiy hayot tarzining ayrim nomaqbul tomonlari, taraqqiyot va rivojlanish uchun to'siq bo'layotgan ayrim ilatlar, alohida olingan shaxslarga salbiy xususiyatlari, shuningdek, ma'lum bir guruh va toifalarga oid bo'lgan dogmatik qarashlar fosh etiladi. Fosh etish esa achchiq kulgi asosida kechadi.

Professor A.I.Efimov o'zining "Stilistika russkogo yazyka" nomli kitobida V.G.Belinskiyning haqiqiy yumor hayotga to'g'ri qarashdir, u notavonlikni ayab o'tirmaydi, uning badbasharaligi va bema'niligini yashirmaydi ham, bo'yamaydi ham, unga qarshi nafrat uyg'otadi, degan so'zlarini, komediya haqida gapirganda, uni "sivilizatsiya guli, taraqqiy etgan jamoatning mahsuli, uni tushunish uchun bilimdonlikning yuqori darajasida bo'lish lozim deb yozganini keltiradi.

O'zbek adabiyotida satiraning mohir ijodkori Abdulla Qahhor ayrim shaxslar taqdirini tasvirlash orqali ham, jamiyat rivojiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish orqali ham satira janri rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning "Adabiyot muallimi" hikoyasida ayrim olingan shaxs satira ostiga olinadi. Mulohaza yuritishdan ojiz bo'lgan, adabiyot, san'at nimaligini tushunib etmaydigan, biroq o'zini adabiyot o'qituvchisi deb biladigan, bilganda ham butun dunyo adabiyotidan xabardor, deb biladigan, o'zichasiga kimligini boshqalarga ko'rsata oladigan Boqijon Baqoev o'zini o'zi fosh etadi.

"Qabrdan tovush" hikoyasida esa dogmatik ta'limot oddiy aravasoz usta Turdiali tomonidan fosh qilinadi.

“Mayiz emagan xotin” hikoyasida jamiyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi ig‘vogar shaxs fojiasi achchiq kulgi ostiga olinadi.¹

“O‘jar”, “San’atkor”, “Maston” hikoyalarida ham shaxslarning qarashlari, hayotidagi ijtimoiy illatlar fosh etiladi.

Latifada ham satirik asarlardagi kabi jamiyatga ijobiy ta’sir o‘tkazishi va shu bilan uning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin bo‘lgan, biroq ijtimoiy taraqqiyotdan uzilib qolganligi tufayli uning rivojiga to‘g‘anoq bo‘layotgan ong va shu ong egalari satiraning achchiq kulgisiga giriftor qilinadi. Bular riyokorlar, xalqidan uzilib qolgan amaldorlar, tekinxo‘r o‘g‘rilardir.

Yozma satiraning o‘zi ham dastlab og‘zaki shaklda vujudga kelgan. Bu tarixiy taraqqiyotning antik davriga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik yozma adabiyotda, albatta, jamiyatning ehtiyoji tufayli nihoyatda taraqqiy etib ketdi. Evropa adabiyotida F.Rable, J.Svift, Gogol, Saltikov-SHchedrinlar shular jumlasiga kiradi. O‘zbek adabiyotida A.Qahhorlargacha Muqimiy, Zavqiylar satirasi mashxur bo‘ldi. Bular shoir bo‘lganliklari uchun o‘z satiralarini she’riy shaklda yozdilar. SHu jihatdan, hajmi bo‘yicha, kichik satirik asar sifatida latifalarga yaqin turadilar. Satira barcha jihatlari bilan latifalarga yaqindirlar.

Latifa va yumor o‘rtasida umumiylikning birinchi ko‘rinishi ularning har ikkisida ham hushchaqchaq kulgining mavjudligidir. Latifaning latifaligini ta’min etadigan vositalar zukkolik, kutilmaganlik (ayni shu jihati bilan badihaviylik kasb etadi va bilan folklorning boshqa janrlari bilan umumiylik doirasida birlashadi), kabilardir. Ayni shu jihatlar yumorga – yumoristik asarlarga ham xosdir. Latifada yaratuvchi xalq o‘z qahramoni orqali, uning aqlliligi, xushyor va so‘zga chechanligi orqali ma’lum bir xodisalar kulgili qilib tasvirlansa, yumorda bunday xususiyatlar

¹ (A.I. Efimov. Stilistika russkogo yazika. M. 1969. 231)

asar muallifining qarashlari asosidagi badiiy-estetik prinsip va pozitsiyalar orqali ifodalanadi.

Yumorning lug‘aviy ma’nosidan ham insonning real hayotga, uni o‘rab turgan ijtimoiy voqelikka bo‘lgan munosabati anlashiladi. Tor ma’noda, aslida ma’no ko‘chishi orqali, kishi organizmidagi suyuqlikni anglatish ma’nosining kengayish orqali ko‘chishi orqali, kulgi hissini qo‘zg‘ovchi vositalardan birini anglatadi.

Latifa ham aslida voqelikka bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Bu umumxalq munosabatidir.

Yumorda qalamga olingan u yoki bu jihat, mohiyat e’tibori bilan, mutlaqo rad etilmaydi, uni yanada rivojlantirish, yanada takomiliga etkazish asosiy maqsad bo‘ladi. Muallif bu jihatdan jamiyatni yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi, o‘z ijodi bilan xalqqa xizmat qiladi, shu xalqni yanada farovon va anglagan hayotda yashashga da’vat etadi. Latifada esa xalqning o‘zi o‘z hayotini yaxshilash uchun, mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun kurashadi, boshqacha aytganda, xalq o‘z tutimi, yashash tarzi, o‘z urf-odat va qadriyatlarini, ularga munosabatni o‘ziga xos tarzda nazorat qilib turadi.

Yumor yozma adabiyot namunasi sifatida, o‘zining aniq-ravshan muallifiga ega bo‘lishi tufayli, alohida olingan asar sifatida, ko‘p o‘zgarishlarga mazmuni bilan bog‘liq holda yangilanib bora beradi. Latifa ham shunday xususiyatga ega.

Masal badiiy adabiyot janri sifatida juda qadimlardan beri yashab keladi. Nutq shakli bo‘yicha uning nazmiy namunalari ham, nasriy namunalari ham shakllangan. Uning turlari ham, mazmun va ifoda usuli bilan bog‘liq holda, turlichadir. Masal-epigramma hajman katta bo‘lmaydi. Bu tip asarlarda ayrim olingan biror shaxs yoki ijtimoiy voqelikka munosabat bildiriladi. Bu munosabat odatda salbiy munosabat shaklida o‘z ifodasini topadi. Salbiylik ifodalanishi huddi latifadagidek kulgi vositasida yuzaga chiqadi.

Masal-dialog, masal-ertak, masal-novella, masal-hikoya, masal-pamflet, masal-qissa, masal-drama kabilar masalning turlari ko'p ekanligini ko'rsatadi. Bularning hammasida ham masalga xos bo'lgan asosiy xususiyat etakchilik qiladi. Bu tasvir usulida ko'zga tashlanadi. Tasvir usulida ijodkor o'z ma'nosida, tushuncha va predmet orasidagi munosabatlar real rostlik asosida emas, balki ko'chim-majoz asosida tasvirlaydi. Mana shu jihat uni qadimlardan boshlanishiga olib kelgan. Chunki muallif konkret odamlarni, ularning xarakteri orqali ochib tashlashdan cho'chigan va mijoziy obrazlarga murojaat qilgan.

Qadimgi davr masalchilarining eng mashhuri yunon shoiri Ezopdir. Keyinchalik Evropaning boshqa adabiyotlarida, xususan, rus adabiyotida ham masal rivojlandi. O'zbek adabiyotida, birinchi navbatda Muxammad Sharif Gulxaniy ijodida masal takomillashdi. Alisher Navoiydan boshlangan yozma adabiyot janri sifatidagi masalni keyingi davr o'zbek adabiyotida YA.Qurbon va S.Abduqahhor yanada rivojlantirdi.

Masal qancha rivojlanmasin, uning tasvir usuli majoziylik asosida davom etmoqda. SHu o'rinda akademik M.Qo'shjonovning fikrini keltirish o'rinlidir. Latifa va masalning masal-epigramma turi latifaga yaqin turadi. Salbiy munosabat bildirilishi va shu orqali tarbiyaviy funktsiya bajarishi ham uni latifa bilan umumiy bo'lgan jihatlaridir.

“Masal janri adabiyotning eng qadimiy janrlaridandir. Xalq og'zaki ijodida har bir xalqniki dagidek, masal janri bizda qadim zamonlardan buyon mavjud edi. YOzma adabiyotimizda ham masal janri yo'q edi, deb bo'lmaydi Bu janrning elementlari Alisher Navoiy asarlarida, xususan uning “Lisonut-tayr”ida uchraydi. Ammo Gulhaniyning “Zarbulmasal”i o'zining badiiy mukammalligi bilan ungacha bo'lgan masal namunalaridan ajralib, turadi. Mana shuning uchun ham biz Gulxaniyni masal janrining asoschisi, deb atay olamiz...”

Asarda ifodalangan badiiy maqsad Gulxaniyning ilg'or gumanizmiga asoslangan bo'lib, davrning yaramas, chirkin va jirkanch tomonlarini tanqid ostiga olishdan iboratdir. (Bu badiiy g'oyaning asarda asos qilib olinishi va uning asarda ifodalanishi yozma adabiyotimizda tanqidiy realizmning shakllana borishidan dalolat beruvchi faktdir) Asarda badiiy vositalardan foydalanish mana shu badiiy maqsadga to'la ravishda bo'ysundirilgandir".¹

Bu ko'chirmani keltirishdan maqsad shuki, o'z navbatida latifa ham tanqidiy realizm paydo bo'lishining asosi sifatida xizmat qilgan. Bu erda gap faqat o'zbek xalq poetik ijodiga mansub latifalar xususida emas, umuman, latifa ham tanqidiy realizm uchun asos bo'lgani xususida ketayotir.

"Zarbulmasal" ... da asosiy g'oyaviy yo'nalish fosh qilish, davr hayoti natijasida ba'zi kishilar xarakterida o'rganilgan illatlarni qattiq tanqid ostiga olish prinsipiga asoslangan² bo'lsa, latifalarda ham ayni shu jihat etakchilik qiladi.

Latifa xalq og'zaki poetik ijodining lof janriga ham yaqin turadi. Tasvirda yumorga asoslanish, qahramonning zukkoligi, hozirjavoblighi, so'zamollighi, jummlalar talaffuzida o'ziga xos intonatsiyaga asoslanishi lofni latifaga yaqinlashtiradi. Engil yumor va hajv asosidagi tanqid latifaga ham, lofga ham xos xususiyatdir.

Loflar dialog asosida bo'lishi uni latifadan farqlaydi. SHuningdek, lofda mubolag'a ko'lami va chuqurligi bilan ham, ikki shaxs-qahramonning aqliy musobaqasi ekanligi bilan ham, mantiq kuchining ifodalanishidagi o'ziga xosligi bilan ham latifadan keskin farqlanadi. Lof bahs asosiga quriladi. Bahs esa savol-javob tarzida ham, maqtanish tarzida ham boshlanib keta beradi. Masalan, savol-javob asosidagi loflardan biri shunday boshlanadi:

¹ (M.Qo'shjonov. Mohiyat va badiyat. Toshkent. 1977, 147-148)

² Yuqoridagi asar, 159-160

– Damlangan choyni kamchiligi bormi-yo‘qmi, – deb so‘rabdi choy damlagan lofchi.

– Sovuq suv bilan chayqalgan choynakka damlanishi uning mazasini yo‘qotibdi, – depti lofchi.

Navbat almashganda voqealar shunday kechadi:

– Damlangan choyingizni qarang, – depti birinchi lofchi.

– Nimasi yoqmayapti, siz damlagandan yaxshi-ku,– depti choy damlagan lofchi.

– To‘g‘ri, choynak issiq suv bilan chayqalgan, biroq o‘tga emas, erga qo‘yib, so‘ng qaynagan suv quyilgan, – depti g‘olib lofchi.

Bu o‘rinda kulgi lofning umumiy mazmunidan va mubolag‘adan kelib chiqadi. Kutilmagan echim esa lofni latifaga yaqinlashtiradi. Xullas, “loflar tuzilishi, yumorga asoslanishi, voqea va xodisalarning favqulodda echilishiga ko‘ra latifalarga o‘xshab ketadi. Bu o‘xshashlik har ikki janrning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan”.¹

Latifa askiya janri bilan ham umumiyliklarga ega. Chunki askiyada ham hozirjavoblik, kutilmagan javob, mantiqiy mushohada etakchi jihatlar sanaladi. Ayni shu jihatlar bilan latifaga yaqin tursa, ijroda dialogik nutq shakli uni latifadan farqlaydi.

Latifa yaqin bo‘lgan yana bir janr anekdoddir.

Anekdot latifa singari qisqa, kichik, tez rivojlanib boruvchi syujet chizig‘iga ega og‘zaki hikoya. Og‘zakilik, hajmning kichikligi bilan, hajviy xarakteri bilan, fosh qilish jihati bilan latifa qatorida turadi. Aslida bu janrni ham latifa doirasiga kiritish

¹ (Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent. 1990, 225-b)

mumkin. Anekdodda bir mavzuning turlicha yoritilishi, unga turlicha yondashish tufayli turli variantlar vujudga keladi.

Bu janr ham juda qadimiy janrlardan sanaladi. Shuning uchun ham bu soʻzning terminologik qoʻllanishi ham yangi eraning oltinchi asrlariga toʻgʻri keladi. Lugʻaviy jihatdan chop etilmagan maʼnosini beruvchi bu soʻz birinchi marta Vizantiyada termin sifatida istʼemolga kiritilgan.

Anekdod tez taraqqiy qiladigan, jamiyat taraqqiyoti bilan teng yuradigan janrdir. Bu jihatdan u publitsistika kabi operativ janrdir. Oʻzbek xalq ogʻzaki badiiy ijodida ham anekdot yaxshi rivojlanmoqda.

Anekdodlar barcha xususiyatlar bilan latifaga yaqindirlar.

Latifaga oʻzining barqaror qahramoniga egaligi bilan qolgan barcha janrlardan farqlanadi. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijod poetik ijodining qahramoni Nasriddin afandidir. Xalq sevgan, ardoqlagan bu obraz nihoyatda erka obrazlardandir. Uning qilgan donishmandlik ishlaridan ham, bir muncha telba-teskari harakatlaridan ham, soddaligi, xatto bu soddalik goʻllik darajasigacha etib kelganida ham bu obraz sevimli obrazligicha qoladi, “Nasriddin afandi” degan nom yoniga “Xoʻja Nasriddin”, “Mulla Nasriddin” nomlari qoʻshilib, uning nomi yanada kengayib bora beradi.

Latifalarda bu afandi, haqiqatan ham, Nasriddin afandi boʻlib yashaydi, shu nomga mos va muvofiq holda harakat qiladi, gapiradi, bunda bir muncha sodda, oʻta sodda tarzda tasvirlanadi. SHuningdek, oʻta aqlli, hozirjavob mantiqiy fikr egasi, soʻzga chechan shaxs, mulla – Mulla Nasriddin sifatida tasvirlanadi va xokazo.

Latifalarda tasvirlangan Nasriddin afandi, u qanday holda tasvirlanmasin, xalq vakili, xalq qahramoni boʻlib qola beradi. U xalq idealidir. Chunki unda xalq ideali ifodalanadi, bu idealda yani yaratgan xalqning orzulari, xohish-istaklari va, ayniqsa, ishonch-eʼtiqodlari oʻz ifodasini topadi. Nasriddinning qambagʻalligi ham

o'zining faoliyatsizligini ko'rsatmaydi, bu qashshoqlikning sababchi omili ko'rsatiladi.

Kulgu-umri bitayotgan narsa va hodisalar ustidan sog'lom, baquvvat, yashovchan yangiliklarning g'alabasi, farovon turmushining ehtirosli zavq-shavqi, ijodiy mehnatning orombaxsh gashti, yutuq-g'alabalarning yakuni, ma'naviy boylik, bardamlilik belgisi, tetiklik va quvnoqlik nishonasi hamda og'ir mehnatni yengillatuvchi hamkordir. Chunki "kulgi hamma eskirgan, yangi yangi turmush taraqqiyotiga to'sqinlik qilib, chirib, nurab turgan dabdabada omonatgina yashab turganlarga qarshi eng kuchli qurollardan biridir. Yuksak didli, zavqi baland, kulgu shina vandasi bo'lgan xalqimiz shodlik, xursandlilikka juda yuksak baho berganidan o'z og'zaki badiiy ijodining ko'pchilik tur va janrlarini kulgu asosida yaratgan. Xalq yaratgan hajviy qo'shiq va ashulalar, laparlar, qiziqchilikda kulgi, ijrochi shaxsning asar g'oyaviy mazmuni asosidagi harakati, nutqidan hosil bo'ladi. Bulardan ma'lum bir rol ni ijro qilayotgan kishi o'z obrazidan dramatik san'at bilan so'z san'atini mohirlik bilan mujassamlashtiradi.

Latifa, askiya-payrovlarda bo'lsa, asar temasining nihoyatda ixcham bo'lishi, g'oyaviy mazmunining majoziy o'tkirligi - ko'p ma'noli gap, so'zlarni saralab, mahorat bilan o'z o'rnida ishlata bilish- kulgining asosiy usuli va vositasi bo'lib xizmat qiladi. Xalqimizning kulgusi uning o'tkir g'oyaviy va tarbiyaviy qurollaridan biri bo'lib, u hamisha o'zida chuqur sotsial mazmunni ifodalaydi.

Kishilar yosh avlodga hayot hodisalarini va rivojlangan qonunini o'zi yashab turgan turmushni yaratgan maqol, hikmatli so'zlar orqali ham nasihat qilib ta'lim beradi. Masalan: ishlagan -tishlaydi, ishlamagan-kishnaydi.

Follbinning so'ziga ahmoq ishonar. O'ylab gapirgan maqto'vda bo'lar, o'ylamay gapirgan mazaxda bolar. Og'iz yugirigi-oshga, til yugirigi-boshga va boshqalardir. Bunday maqollar xalq kulgisining asosiy yadrosini tashkil etadi. Xalqning o'z sinfi doirasidagi kishilarga nisbatan bo'lgan kulgusi-samimiy xazil, tegishish, odob

axloqqa chaqiruvchi tanbeh hato kamchiliklarini tugatishga qaratilgan ta'limiy tanqidur.

Insonning ongida shakllangan barcha fikirlarni ro'yobga chiqarish uchun albatta til asosiy vazifani bajaradi. Til vositasi orqali insoniyat bir-birlari bilan o'zaro muloqot qilib fikir yuritishadi. Shunday ekan til haqida biroz fikir yuritsak. Til - kishilar o'rtasida aloqa quroli va "real tushuncha" munosabatlar ifodasi bo'lgani uchun sinflar orasidagi kurash keskinlashgan sari, u tobora tilda ham sezilarli iz qoldira bordi. Dushmanni tilning leksik resurslari, lug'at boyliklari, tasviriy vositalari orqali bo'lmagan vaqtlarda, dushmanlik kayfiyati, nafrat-g'azab, ko'rolmaslik, qarg'ish, haqorat pornografiya bilan ifodalangan.

O'zbek xalq tilida madaniy saviyaning erta uyg'onganligini shundan bilish mumkinki, ertak, doston, latifalarda pornografiya qo'llanmagan. O'zbek xalq og'zaki ijodida kulgi chiqarishning asosiy vositasi, uslubi xalq tilida ziyraklik va zakovat bilan foydalanish va so'z o'yinlari qilishdir.

Latifa janri haqida gapirishdan avval xalq og'zaki ijodiga to'xtalib o'tmoqchiman. Chunki latifa xalq og'zaki ijodining bir qismidir. Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli-xalq og'zaki ijodi (folklor) hisoblanadi. Muallifning noma'lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo'lish xalq og'zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og'zaki ijod har qanday yozma adbiyotga tayanch vazifasini bajargan.

Yozma adabiyotning eng muhim yutug'i shundaki, u unitilmaydi va keyingi avlodlarga o'zgarmay yetib boradi. Bu ikkala turi doimo yonma-yon yashaydilar va bir -birining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishi uchun zamin. O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha:

1. Epik tur: mif, afsona, rivoyat, ertak, latifa, lof, terma, doston va boshqa.
2. Lirik tur: marosim folklorining barch ko'rinishlar, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashulla ham shular jumlasidandir.

3. Dramatik tur: og`zaki drama, qo`g`irchoq o`yin, askiya, xalq teatirlari va shu kabilar.

4. Maxsus tur (parema): maqol, matal , topishmoq. Shular xalq og`zaki ijodining asosiy qismini egallaydi. Xalq og`zaki ijodini o`qisang yana yangi-yangi ma`lumotlarga ega bo`lasan.

Ba`zi bir vaqtlarda lof hamda latifalarni o`zaro yaqin holatda ko`rib qolamiz. Ularni o`zaro bir- biriga yaqin deb bo`ladimi? To`g`ri ular to`qimaligi hamda insonlarga ko`tarinki ruh berish jihatlari bilan yaqin bo`lishi mumkin lekin ular butunlay boshqa-boshqa janrlardir. Ullarning farqli tomoni shundaki, latifalar hayotdan olingan hamda bo`lgan voqeani kulgili tarzda insonlarga yetkazib beradi. Loflar esa hayotda bo`lmagan va umuman inson yoki hayvon zoti qila olmaydigan ishlarni insonlarga kulguli, hayratlanarli tarzda aytib beradi. Hozir gapimizga yanada oydinlik kiritish uchun lof janriga berilgan ta`rifni yodga olsak.

Lof – haqiqatga to`g`ri kelmaydigan, haddan tashqari bo`rttirib aytiladigan, hazil- mutoyibaga asoslanadigan og`zaki ijod janri hisoblanadi. Loflar xalq og`zaki ijodining kulgi yaratuvchi nasriy janridir. Ularni yaxshilab o`rganish va izlanish natijalari samarasi sifatida latifa va lof tushunchalarining yaxshiroq bilib olishimizga yordam berdi.

Albatta latifa janri to`g`risida gap boshlashdan oldin bir narsaga to`xtalib o`tishni o`zimizga joiz deb topdik ya`ni janr o`zi nima?

Janr terminining qo`llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda janr termini adabiy tur ( epos- tur, roman – xil , tarixiy roman janr ) qo`llanadi. Shunga qaramay janr terminining bir adabiy tur doirasidagi umumiy xususiyatlari bilan farqlanuvchi asarlar guruhi (mas, epos – adabiy tur, hikoya, qissa, roman – j) manosida qo`llanishi kengroq ommalashgan. Tarixiy kategoriya sifatida adabiy janrlar sistemasi muttasil harakatda yashaydi : yangi janrlar vujudga keladi, takomillashadi, iste`moldan chiqadi: har bir alohida janrda ham muttasil o`zgartirishlar kiritib boradi. Ikkinchi tomondan, yangi davr adabiyotida, XVIII asrdan boshlab, badiiy o`ziga

xosliklarini, ya'ni konkret asarga xos janr xususiyatlarini namoyon etaveradi. Yani bir jihati, har bir davr adabiyotidagi janrlar tizimi adabiy an'analarning davomi va adabiy aloqalar natijasi o'laroq, yanada rangba-rang tus oladi: faol janrlar bilan bir qatorda an'anaviy va xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan janrlar ham iste'molda bo'ladi. Demak har bir davr adabiyotining janrlar tizimini sinxroniya/dioxroniya aspektlarida o'rganish taqozo etiladi. Bundan ko'rinib turadiki janrlar tizimi muttasil o'zgarishda bo'lib turadi.

Latifa (ar.-nozik, yoqimli, zarif, muloyim)- Yaqin va O'rta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodi va yozma adabiyotda keng tarqalgan janr: ixcham hikoyacha, anekdot. Xalq og'zaki ijodida latifalar tematik jihatdan turli-tuman, markazida ko'proq kulguli voqea birgina epizod bilan cheklanib, hajviy-yumoristik ruh bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Umumiy qahramonga egalik og'zaki latifalarning yana bir xususiyatidir. Jumladan, o'zbek folklorida- Nasriddin afandi (qisman, Mashrab, Kal), tojiklarda- Mushfiqiy, qozoqlarda- Aldarko'sa, turkmanlarda- Kamina latifalarning umumiy qahramoni sifatida harakterlanadi. Folklorga xos variantlilik latifalarda ham kuzatiladi, jumladan, bitta latifaning turli qahramonlar bilan bog'lanish hollari ko'p uchraydi.

Yozma adabiyotdagi latifalar ko'proq ibratli mazmundagi. O'zgalar uchun ibrat bo'la oladigan shaxslar haqidagi mo'jiza hikoyachalar shaklida uchraydi. Agar latifani janr sifatida belgilovchi xususiyatlar (ixchamlik, syujetning birgina hayotiy epizod asosiga qurilishi tasvirlangan voqeaning kulguli yoki ibratli bo'lishi, qahramonlarga topqirligu zukkolik xosligi) e'tiborga olinsa, Sharq mumtoz adabiyotidagi Sa'diyning " Guliston" va " Bo'ston", Jomiyning " Bahoriston ", Navoiyning qator asarlari yoki Xoja hikoyatlari, shuningdek, Vosifiyning " Badoe ul- vaqoe" tipidagi qator tarixiy asarlar kirgani ayon bo'ladi. Latifa janri zamonaviy folklorda ham ancha faol: iste'dodli zamondoshlarimiz tomonidan bugungi hayotimiz bilan bog'liq turfa mazmundagi latifalar yaratilib, ommalashmoqda, bu – janrning barhayotligi belgisi.

Shuningdek, axborot almashish jarayonini tezlashgan, o'zlashtirilib, milliy

hayotimiz va mentalitetimizga moslashtirilgan latifalar – anekdotlar ham ko'plab paydo bo'lmog'daki bu folklorshunoslar uchun alohida mazmundir.

Latifa janri to'g'risida turli manbalarda turlicha malumotlar beriladi. Shu manbalar asosida latifa janrini o'rganish tobora mukammal tus olib bormoqda.

Qadimgi og'zaki va yozma adabiyotlarda latifa har-xil turda uchraydi. Qadimgi adabiyotshunos allomalarimiz asarlarida latifa atamasi “ kichik kulgili hikoya”, yoqimli va hushchaqchaq ifoda deb bitilgan Tog'ri bu so'zlarni yana qaytarib-qaytarib aytyapmiz, buning sababi bor.Chunki latifa janri qadimiy bo'lganligi sabab uni turli manbalardan izlab va topilgan ma'lumotlarni solishtirib ular bilan iloji boricha sizlarni tanishtirmoqchimiz. Latifalarning o'zi juda qadim zamonlardan ya'nikim o'sha XIII asrdan boshlab Sa'diy, Xofiz, Zakoniy ijodlari davridan qo'llanib kelinmoqda ekan. Lekin” latifa” atamasi tanilishidan avval “Hikoyat”, “Mutoiba” so'zlari orqali ifodalanib kelgandir. Bu sozlardan ma'lumki u juda katta o'tmishni qamrab oladi.

Latifa xalqning nozik faximlilik bilan aytilgan kulguli kichik hikoyasi ma'nosida qo'llanadi.

Latifa janri va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida R. Muqumov, H. Roziqov, F. Yo'ldosheva, O.Sobirov, K. Imomov kabi folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor fikir-mulohazalar mavjud. Folklorshunoslarning aniqlashicha latifalarning janr xususiyatlarini beshta bandga keltirish mumkin:

1. Epik.
2. Qisqa.
3. Xazl va hajvga asoslangan.
4. Tugatilgan syujet.
5. Kutilmagan yakundan iborat.

Latifalarni janr sifatida takomillanishida ertak, rivoyat, lof, askiya va maqollarning ta'siri kuchli bo'lgan . Ularning ba'zi bir belgilari va tasviriy vositalar latifaning o'ziga xos xususiyatlarining tashkil topishida yetakchi ro'l o'ynagan latifani

boshqa janrlarga qiyoslaganda uning realistik harakatini ixchamligi va hozirlangan nishonga tez teguvchi xushchaqchaq ruhi bilan tubdan farq qilishini ko`rish mumkin. Hajviy ertak va hikoyatlardan hajmi, mavzu, syujet va kompazitsiyaning qisqa va siqqligida farqlanadi. Unda uchragan metonimiya, kinoya, majoz, hozirjavoblik va xushyorlik bu farqni yanada oydinlashtiradi.

Afandi obrazi xalq hikoyatlarida tip darajaga ko`tarilib umumlashma obraz bo`lib gavdalanadi. Latifalar u nihoyatda ziyrak va hozirjavob bo`lgan.

“Afandi bir yalqovdan so`radi: - Holing qalay? – Topsam yeyman topmasam sabr qanoat qilaman, - javob berdi yalqov. Unday bo`lsa , xuddi bizning shaxar itlariga o`xshar ekansan, - deydi Afandi.”

Ushbu latifadagi yengil kulgu va kesatiq dangasalik va yalqovlik qoralashdan iborat.

Latifada hayotning kichik bir lavhasi ko`rsatilib unda zid fikirni ifodalovchi ikki xil xarakter to`qnashadi. Bu to`qnashuvlar asosan hayot va uning hodisalari tufayli sodir bo`lgan ziddiyatlar, maishiy turmush – oila, turli tabaqa vakillarining o`zaro munosabatlarini ifodalab latifaning mazmun, ko`mik qahramon xarakterining biron belgisini namoish qilish bilan yakunlanadi.

Latifaning bosh qahramoni Nasriddin Afandi obrazining eng xarakterli xususiyati shundaki, u doimo ko`pchilik, omma tomonidan u xalqning himoyachisi, og`irini yengil, uzog`ini yaqin qiladigan ma`naviy tayanchi : o`zbek xalqi orasida u bormagan joy, kirmagan xonadon yo`q.

Afandi xarakteriga xos xususiyatlar shundaki, u hamisha to`g`ri so`z, tap – tortmas, ba`zan biroz devona fe`l , ba`zan nihoyatda donishmand , ba`zan esa tentaknamo. Shu sababli uning qaltis hazillarini shohlar ham ko`taradi, uni jazolashga botina olmaydi.

“– Balli shohim, – dedi Afandi.- Siz hozir meni ko`zimga to`rt oyoqli bo`lib ko`rinyapsiz.”

Bu bilan Afandi podshoni hayvonga o`xshatadi. So`z bilan mo`ljalni aniq

nishonga olib qaqshatqich javob bilan uni kamsitmoqchi bo'lgan tomonni mulzam qildi.

Latifaning yaratilish tarixi xalq ijodining tarixi singari juda qadimiy.

Latifa xalq hayoti zaminida yuzaga kelgan. Shu tufayli yozma adabiyotga xalq og'zaki ijodini kirib kelgan va yozuvchilar tomonidan rivojlantirilgan. O'z navbatida yozma adabiyotda yaratilgan latifalar zamonlar o'tishi bilan asta-sekin xalq og'zaki ijodiga kirib kelgan, ko'mik qahramon nomi bilan bog'lanib, latifalar miqdorini ortirib borgan. Latifalar uzoq zamonlardan beri xalq orasida aytilaverib maqollarga o'xshab quyma holga kelgan, bir eshitgan kishining hech qachon esidan chiqmaydigan badiiy yuksak asar bo'lib qolgan.

Latifalarda o'zbek xalqiga xos kulgusevarlik, donolik va hozirjavoblik singari xususiyatlar mujassam bo'lgan.

Tojik adabiyotlarida mavjud latifa janri (anekdot) xalq orasida keng tarqalgan va ommalashgan. Bunday latifalarning bir qator to'plamlari tojik va rus tillarida chop etilgan. Biroq tojik folklorining bu original janri. Hozirgi kungacha tojik folklorshunosligida kuchli ta'lim faning aylana oladi.

Latifa tarixi xalq tarixi va uning ma'naviy madaniyati, udumlari bilan chambarchas bog'liqdir. A.V. Lunchariskiy ta'kidlaganidek "Etnografiya madaniyatning nozik jihatlarida yaratilgan kulguni o'rganadi, va bu kulgu musobaqasini keltirib chiqaradi."Bu so'zlar bir tomondan xalq satira va yumorning qadimgi namunalarning ko'rsatsa, ikkinchi tomondan uning siyosiy iqtisodiy qirralarini ta'kidlaydi.

Demak satira va yumor, turli shakllarda yozuv paydo bo'lishidan avval insonlarga siyosiy munosabatlarni namoyon qilishga yordam bergan.

Hozirgi kunimizgacha saqlanib qolgan so'g'd adabiy esdaliklarida yaqqol ko'rinib turadiki latifa va uning elementlari yozma shaklda arablar bosqinigacha mavjud bo'lganligi, I.S. Braginiskiy. Qadimgi so'g'd hikoyatlarini tariflab shuni ma'lum qiladiki ular latifa janrga judayam yaqin ekan. Xalq hikoyatlarini to'plash va

latifalarni to'plam shakliga keltirish sosoniylar davridanoq ko'plab kitoblardan o'rin oladi.

Yana bir topgan manbamizda xalqning xazilmutoyiba, tegishish, ermak kabi yumorlari, nafrat- g'azabni ifodalaydigan masxara, mazax, kulgilari xalq latifalarida ko'proq ifodalangan.

Latifa kichik, ixcham shaklda chuqur ma'no ifodalaydigan epik janrdir.

Epik turning bu janri o'zining tuzilishi, xarakterli xususiyatlari bilan hajviy hikoyalar, masallar, qiziq ertaklardan tamoman farq qiladi.

Hayot va uning hodisalarini, inson turmushi hamda ular orasidagi munosabatlar masallarda jonli va jonsiz tabiat lavhalari, hayvonlar obrazi orqali, hajviy ertaklarda so'zga chechan, uddaburon, bilimdon kallar, podachi cho'ponlar, xullas, mehnatkash omma vakillari obrazlari yordamida, hikoyalarda esa qiziqchi, masxarabozlar ijrosida aks ettirilsa, latifalarda uzoq zamonlardan beri ishlanib stabillashgan komik qahramon obrazida namoyon bo'ladi.

Latifa Farg'ona vodiysidagi kishilar orasida juda keng tarqalgan adabiy janrlardan biridir. Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, munosabati natijasida yuz bergan iqtisodiy –ijtimoiy hodisalar ta'sirida komik qahramonlarning nomi ham ba'zan o'zgarib turadi.

Latifalarda ijtimoiy hayotning kichik bir lavhasi ko'rsatilib, unda ijobiy va salbiy idealni ko'rsatuvchi ikki xil xarakter to'qnashadi. Bu to'qnashuvlar asosan hayot va uning hodisalari tufayli yuz bergan kuchli ziddiyatlar, maishiy turmush, oila, turli ijtimoiy guruh vakillarining o'zaro munosabatlarini ifodalab, latifaning mazmuni komik qahramon xarakterining biror belgisini namoish qilish bilan mantiqiy yakunlanadi. Latifa yechimidagi komik qahramonning g'alabasi yoki uning yengilib, mulzam bo'lgandan keyin ham qiyin, og'ir holatni pisand qilmay, ruhan tetik, tantanali vaziyatda qolishi kulgu ob'yekti bo'ladi.

Ko'mik qahramon o'zlarining hayot hodisalariga munosabati, oila, a'zolari, kishilar bilan bo'lgan munosabatlardagi kulguli xarakteri, fe'l-atvori, xulqi, nutqidagi

kinoya, piching, xushchaqchaq kayfiyati, ko'tarinki ruhini, ba'zan esa, istehzo, mulohaza bilan to'pa-to'g'ri nafrat- g'azabni kulgu formasida ifodalaydi.

Latifa epik tur janrlarining hammasi, xalqning satirik, yumoristik komediyalari, qisman qochirim, so'z o'yinlari vositasida lirik tur bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga, u askiya –payrovlar bilan bir butunlikni tashkil qiladi. Latifalarda turmushning boy, xilma- xil hodisalari, uning eng mayda ikir-chikirlari ham faqat bir komik qahramonning ishtiroki bilan aks ettiriladi. Latifalar tematik jihatdan rangba-rang. Ularda mehnatkash xalqning kurashi, turmush tajribalari, bilim- tushunchasi, aql- zakovati, mehnatsevarligi, xushchaqchaq kulgisi, achchiq, kinoya-pichingi, beg'araz hazili masxara, mazax formalarida ifodalanadi.

Mehnatkash xalq tashqi, ichki dushmanlar, kishilardagi xato-kamchilik, nuqsonlarni latifalardagi komik qahramon obrazi orqali fosh qilish bilan yoshlarni odobli, yaxshi axloqli qilib tarbiyalamoqchi bo'lgan.

Latifalar xalq sayl-tomoshalari, bazm, ulfatchilik, o'tirishlari, to'y, mehmonxonalarda- xullas, qayerda to'rt- besh odam to'planib, o'yin- kulgu qilsa, o'sha yerda ishlatilaveradi. Farg'ona vodiysidagi o'zbeklar orasida latifa aytuvchi kishilar ko'p. Ular o'zlarining repertuaridagi boy, rangba-rang latifalari bilan yig'in, o'tirishlarni qizitadi, hammani o'z og'ziga qaratib oladi. Ana shunday kishilardan uch- to'rttasi to'plangan joyda latifa go'ylik askiya- payro tusini olib, bir temadagi latifalar davradagi qarama-qarshi taraflar tomonidan aytilib tugallangach, boshqa temalarga o'tiladi. Xalq orasidagi latifago'ylik ko'pincha hazil, askiya-payrovlari bilan ijro qilinib, bu narsa mutoyiba deyiladi. Qolimizdagi bir yarim minga yaqin latifalarning komik qahramonlari Aldarko'sa, Mashrab, Nasriddin Afandi obrazlaridir.

Yana bir manbada esa, latifalar xalq og'zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan bo'lib, nozik, kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulgili, kichik hajmli hikoya hisoblanadi. Xalq o'rtasida "Afandi" deb ham yuritiladi. "Latifa" atamasi arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib, "nozik fikrlash", "yaxshilik qilmoq", "yoqimli",

“zarif” kabi ma’nolarni anglatadi. Mustaqil janr sifatida latifa quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Qahramon bilan bog`liq holda yaratiladi (Nasriddin obrazi, bu obraz asosan XIX asrdan boshlab o`zbek latifalariga kirib kelgan. XIX asrga qadar latifa qahramoni “ bir kishi”, “ Mashrab”, fors- tojik latifalari ta’sirida “Mushfiqiy”, “Bahlul” yoki turkiy xalqlar og`zaki ijodida keng tarqalgan “Aldar ko’sa”, “Ko’sa”, “Kal” kabi turlicha nomlar bilan yuritilgan.

2. Xalq orasida bu obraz “Nasriddin Afandi”, “Xo`ja Nasriddin afandi” yoki “Afandi” kabi shakllarda qo`llaniladi). Latifalarning eng muhim xususiyatlaridan yana biri uning hamma vaqt hayot bilan hmnafas, hamqadam borishidir. Latifalar mazmun va voqelikka munosabati jihatdan ikki turga bo`linadi.

a) Hajviy latifalar- ularda Nasriddin afandi yirik davlat arboblari, saroy ahli, mufti va qozilar, hokim va mirshablar, makkor mullalar va johil tabiblar davrasida tasvirlanadi.

b) Yumoristik latifalar- ularda Afandi bevosita oilasi, bolalar, qo`ni-qo`shni mahalla- ko`y davrasida tasvirlanadi. Latifani maxsus ijro etuvchilar yo`q. Uni har kim aytaverishi mumkin. Latifa anekdot (yun. “bosib chiqarilmagan”) deb ham yuritiladi. Atama sifatida VI asrda Vizantiyada qo`llanilgan.

Tojik xalqining turli joylarida “latifa” atamasi turlicha nomlanadi. “Matali Afandi”, “Nazir”, “laqicha”, “ Matali Afandi”, “qissa” atamalari bilan ataladi. Yozma adabiyotning ulug` xislatlaridan biri bu folklor bilan qadim zamonlardanoq uyg`unlashib ketganligidir. Adabiyotchilar latifalarni obrazlashtirish va syujetlarini keng ko`lamda uning davomiyligi va rivojlanib borishini hisobga olishgan, ta’minlab borishgan.

Xalq latifalari o`zbek xalqining hayotida ko`zga ko`rinarli o`rin tutadi. Mehnat ommasining yuqori sinf zulmlariga qarshi kurashda latifa katta ro`l o`ynaydi. Shunday ekan, latifa xalq hayotida, siyosiy iqtisodiy hayotida katta ro`l o`ynab

kelgan, va bundan keyin ham o`ynaydi.

Agar folklorning boshqa turlari: topishmoq, ertak, dostonlarga belgilangan vaqt, maxsus fursatlar, insonlarning fikirlari kerak bo`lsa, latifalar esa bundan farqli o`laroq 2-3 odamning ishtiroki kifoya xolos. Latifalar doimo samarali, kutilmagan, yakunga ega bo`lgan, real hayot va o`ylab topilgan g`aroyib hodisalarni qisqa, o`tkir, hikoyasidir. U faqat bir epizodga qurilgan bo`ladi. Latifa hayotning turli qirralarini aks ettirishi barobarida, eng avvalo to`quvchi-yozuvchidan boshqa janrlardan farqli o`laroq topqirlik, hayotiy o`tkir xushchaqchaqlikni talab etadi.

Latifalar tarix va kelajakni birlashtirib turuvchi bir vositadir. Ularni o`rganish natijasida o`zbek xalqining naqadar so`z boyligi ko`p ekaniga guvoh bo`lamiz. Albatta boshqa millatlarning latifalarini ham yoddan chiqarmaslik kerak.

II Bob. Latifa janrining taraqqiyoti.

Qo`limizdagi bir yarim mingga yaqin latifalarning komik qahramonlari Aldarko`sa, Mashrab, Nasriddin Afandi obrazlaridir.

Aldarko`sa sarguzashtlari mustaqillikacha 1911, 1914 yillarda Buxoro, Toshkent shaharlarida litografiya yo`li bilan nashr qilingan. Biroq bundagi latifalar soni besh-oltitadan oshmaydi.

Bizda Aldarko`sa sarguzashtlari bilan boshlangan o`ttiztacha latifa bo`lib, ularni ba`zi hajviy ertak, hikoyalarning mazkur komik obraz bilan bog`lanib, qayta ishlangan formasi deyish mumkin. Aldarko`sa obrazi 1955- yilda nashr etilgan “O`zbek xalq ertaklari” kitobiga kiritiladi.

Aldarko`sa sarguzashtlari o`zining kompazitsion tuzilishi, hajmi, tematikasi, g`oyaviy mazmun, obraz xarakteri, e`tibori bilan latifalardan ko`ra kichik hajmdagi hajviy ertaklarga yaqin turadi. Bularda latifalarga nisbatan murakkabroq hodisa, voqealar aks etadi.

Ammo Aldarko`sa sarguzashtlarining ertaklardan farqi shuki, bunda faqat bitta komik qahramon – Aldarko`sa obrazi xodisalar ichida suzib yuradi.

O`zbek xalqi orasida yaratilgan Aldarko`sa sarguzashtlari bilan shu nom bilan boshqa yaqin xalqlar folklorlarida mavjud bo`lgan variantlarining ko`pi syujet, g`oyaviy mazmun, komik qahramon xarakteri jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo`lishlariga qaramay, ularning har birida o`sha xalqning o`z tarixi, o`ziga xos urf-odati bilan bog`langan ijtimoiy hodisalar aks etgandir.

Aldarko`sa obrazida ko`proq ko`chmanchi chorvadorlar hayoti ko`zga tashlanadi.

1911-1912 yilda Kogonda litografiya yo`li bilan bosilgan “Aldarko`sa hikoyasi” kitobida bu obraz shunday xarakterlanadi: “Tarix ming olti yuz to`qson birinchisida Samarqand o`lkasida Jonibek... zamonida Ramadan elidan Shumray degan kishi (oilasi)dan Quray degan o`g`il tug`ildi. Quray balog`atga yetib, xotin o`lib undan yana

bir bola Zoli jahonga paydo bo‘lib, bu bolaning makriga barcha taajjub barmog‘ini tishlab, tafakkur bahriga o‘zini urar edi...

Shu vaqtda Jayroncha nomli bir donishmand bo‘lib, u har bir so‘ziga xondan ming tanga olar edi. Uning so‘zi ham bir kitob bo‘ladi.

Bir kuni Jayroncha tangalarini xurjunga solib, otga ortib, minib borar edi. Nogoh, u Qurayning bolasiga yo‘liqib qoldi. Ikkovi so‘zlashib, oxirida Jayroncha donishmand bo‘la turib, bu bolaning so‘ziga javob topib berolmay, istixolaga ketib, yorilib o‘ldi. Uning xurjunidagi tilla va oti bunga qoldi.

Bora-bora buning shuhrati, dong‘i olamga ketdi. U balog‘atga yetib, yoshi o‘ttizga yetib borgan bo‘lsa ham yuzida bir tuki yo‘q, iyagi sartaroshlarning qayrog‘idan ham silliq, yuziga chibin qo‘nsa, oyog‘i tirg‘anib tura olmas edi. U el orasida Aldarko‘sa atandi. Agar u birovni makr qilib alday bersa, shaytonlar ko‘rib, hayrat yoqasin ushlab, qo‘rqib, bulutlar ustida, erlar ostida qochib yurar edi... ”

Ana shu kitoblarda Aldarko‘saning urug‘-elati haqida ham shunday xabar beriladi.

“Podsho so‘radikim, qaysi shahar odami, qay eldan ekan deb

Boyvachchlar aydilar:

– O‘zi o‘zbek, qozoq elindan bo‘lur, - dedilar. Andin so‘ng, Qozog‘iston elin barchasiga odam yuborib, axtardilar. Andin Urganch cho‘lida Ramadan elinda Aldarko‘saning ovulini topdilar...”

Keltirilgan bu parchada Aldarko‘saning portreti chizilgan va uning xarakteriga xos ba’zi xususiyatlar ko‘rsatilib, bu obrazning o‘zbek va qozoq xalqlari folklorlarida mushtarak ekanligiga ham ishora qilinmoqa. Bu kitobda “Jayroncha bilan uchrashuv”, “Aldarko‘sa va shayton”, “Aldarko‘sa va qirq boyvachcha”, “Aldarko‘sa

qizlar qiyofasida” kabi hikoyalar komik qaxramon Aldarko’sa obrazi orqali syujet chizig’i bilan bog’langan.

Bosilib chiqqan kitoblarda Aldarko’sa obrazini kamsitish, xalqchil tomonlarini pastlatib, aldamchi, firibgar sifatida ko’rsatishga urinishlariga qaramay, baribir bu obraz ekspluatatorlardan o’ch oluvchi mehnatkash omma vakili sifatida yaqqol ko’zga tashlanadi.

1955 yilda bosili chiqqan. “O’zbek xalk ertaklari”ga kirgan “Aldarko’sa bilan imom”, “Aldarko’sa bilan savdogar”, “Minora tepasidagi er”, “Hikmatli mosh”, “Yo’qolgan dunyolar orasida”, “Firib egan shayx”, “Xalol molim”, “Boy bilan kechirmishlarim”, “Qirq yolg’on”, “Aldarko’saning uylanishi” kabi hikoyalarda ham Aldarko’sa obrazi ekspluatator sinf vakillarini mazax, masxara qilib, kulgili holatda nochor qoldiruvchi tadbirli, bilimdon kishi bo’lib ko’rinadi.

Qo’limizdagi qo’lyozma materiallarda “Erga kirgan qizlar”, “Farishtalar”, “Ota vasiyati”, “Shartiga ravo”, “Soqol savdosi” kabi hikoyalar bo’lib, ularda ham Aldarko’sa obrazi yuqoridagi xislatlarga ega bo’lgan xalq vakili, u ojiz, mushkul ahvolda qolgan mazlumlarga yordam beruvchi xaloskor, olijanob shaxs sifatida gavdalanadi.

Aldarko’salar bir ishda tadbirkor, aqlli, bilimdon. U hayot va uning xodisalarini o’z raqiblariga nisbatan ko’p biladi, shuning uchun ular ustidan g’alaba qiladi. Uning ko’sa bo’lishi ham qiyofasiga komiklik baxsh etganidek, u bundan foydalanib yoshini, xattoki, jinsini yashira oladi. Uning nomida xam mug’ombirlik, hiylagarlik mujassamlangan komiklik bor. Ammo bu obraz nutqida qochirim, so’z o’yinlari boshqa komik qahramonlarnikiga nisbatan yo’q darajada.

Aldarko’sa obrazi boshqa komik qaxramonlardan oldin yaratilgan obraz bo’lib, u Mashrab, Nasriddin Afandi obrazlarining yaratilishi, badiiy tip sifatida mukammallashuviga xizmat qilgan deyish mumkin. Shuningdek, Aldarko’sa

sarguzashtlari bilan bogʻlangan hikoyalarning koʻpchiligi keyincha komik qahramonning nomi oʻzgargani holda latifa shakliga koʻchgan.

Oʻzbek xalq latifalari orasida Mashrab nomi va sarguzashtlari bilan bogʻlanganlari ham koʻp uchraydi. Bu latifalar komik qahramonining Mashrab nomi bilan atalishi shubhasiz Oʻzbek xalqining sevimli shoiri. Boboraxim Valibobo oʻgʻli Mashrab (1657—1711) yashab ijod etgan davrdan boshlangandir. Xalq orasida yaratilgan latifalardan bir qismi xozirgacha avtori aniqlanmagan “Shox Mashrab”, “Devona Mashrab” kitoblariga kiritilgan va bu kitoblar orqali yana xalq orasiga tarqalgan. Bu latifalar Mashrab nomi bilan bogʻlanguncha, boʻlak komik qaxramon nomi bilan yuritilgan boʻlishi mumkin. Baʼzi latifalardagi tradiqion syujet boshqa qardosh xalqlar folklorida ham ularning mashxur kishilari nomi bilan borlangan holda uchraydi.

Masalan, “Mashrab va dexqon” latifasida Mashrab oʻz sheʼrini buzib ashula qilayotgan dexqonning xaydayotgan yerini buza boshlaydi.

Buni koʻrgan dexqon qichqirib:

Qanaqa odamsan, mehnat qilib xaydayotgan yerimni nega buzasan?—desa, Mashrab:

Oʻzing nega men mehnat bilan yozgan sheʼrlarimni buzib kuyliysan!— deb javob beradi.

Bu syujet eroniylar latifasida Xofiz Sheroziy, tojiklarda Mushfikiy, turkmanlarda Kaminaga nisbat beriladi. Bu holatni boshqa koʻpgina latifalarda ham uchratish mumkin.

Latifalardagi komik qahramon — Mashrab jabr-zulmga qarshi isyonkor, uning nutqidagi kinoya, piching juda oʻtkir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin Afandi nomi xali keng ommalashib yetmagan davrda, xalq latifalardagi komik qahramon nomlaridan birini Mashrab nomi bilan atadi. Bu xol bejiz emas edi, albatta.

Feodalizm jamiyati chiriq boshlagan XVII asrda biz jamiyatda juda katta bir tabaqaning yuzaga kelganini kuramiz. Bu o'z turmushidan norozi bo'lganlar tabaqasidir. Xonlarning zulmi, beklarning talashi, ruxoniylarning aldamchiligi va sotqinligi natijasida necha-necha ming kishi xonavayron bo'ldi, och-yalang'och qoldi. Kun sayin oshib borayotgan zulm bunday jafokashlarni to'xtovsiz orttirib borar, ertangi kunning bugungidan ham yomon bo'lishidan daxshatli xabar berib turar edi. Ana shunday sharoitda tirikchilikdan, bu dunyoning azobu uqubatidan bezor bo'lganidan, noilojlikdan umidsizlikka tushuvchilar ko'paya bordi. Bunday kishilar g'azablanar, lekin bu qiyinchilikdan qutulish yo'lini bilmas edi, Opposxo'ja kabi tasavvufchi eshonlar tuzog'iga tushar edi. Ularga sig'inib borar edi, chunki tasavvuf ta'limotida shu ilojsiz qolgan ommaning kayfiyatiga mos tushadigan bir qancha unsurlar mavjud edi. Masalan, tasavvuf tarkidunyoni tashviq etar, islom dinining bir qancha shartlarini rad qilar, dunyodagi azoblarni juda iloxiylashtirar ("qancha ko'p riyozat cheksang, xudoga shuncha yaqin bulasan"), bu dunyoda mol-mulk yig'uvchilarga taxqir kuzi bilan qarar edi. Shuning uchun bunday eshonlarga murid bo'lganlarning juda ko'pi ana shu qashshoqlashgan, yuragi xokimlarga qarshi norozilik va g'azab bilan to'lgan ommadan iborat bo'lar edi. Eshonlar ularning yuragidagi bu g'azabni "yumshatib", ularni "mo'min" qilmoqqa harakat etar edi.

Mashrab ana shunday qashshoqlashgan ommadan o'tib, umid bilan Opposxo'jaga sig'inib kelganlardandir. O'zining talanti bilan u tez orada shoir bo'lib tanilgan. Lekin ko'p o'tmay, u tasavvufning qoidalarini buza boshlagan.

Shoir Mashrabning xayoti va ijodiy faoliyati O'zbek sovet adabiyotshunosligida yetarlicha yoritilgan.

“Boboraxim Mashrab ijodi allaqachonlardan buyon ijtimoiy ahamiyat kasb etgan bo’lib, uning nomi xalqimiz hayoti va tarixida muttassiblikka, islom aqidalariga qarshi kurashning bayrog’i bo’lib qoldi. Ruxoniy, dindorlar Mashrab nomini va asarlarini bor kuchlari bilan badnom qilishga, ba’zi hollarda esa, uning xalq orasidagi obro’sidan foydalanib, uni avliyolashtirishga, ijodiga sufiyona ta’rif berishga intilib keldilar”.

Ammo mehnatkash xalq hamisha o’z shoiri Mashrabni sevib xurmatladi, xattoki, uning nomini epik komik qahramon darajasiga ko’tardi.

Xalqchil shoir Mashrabning quvg’inda darbadarlik bilan kechirgan hayotida yuz bergan turli-tuman hodisalar, uning jamiyatdagi turli tabaqa vakillari bilan uchrashuvi, shoirning ularga bo’lgan munosabati, nixoyat, uning Maxmudbiy katag’on tomonidan Balx shaxrida yaxshiyona o’ldirilishi O’rta Osiyo, Xuroson, Sharqiy Turkiston xalqlari orasida achchiq taassurot qoldirgan edi.

Mashrab fojiasi jabrdiyda mehnatkash ommaning mavjud feodal tuzum va hukmron sinflar, ularning maddoxi, g’oyaviy tayanchi bo’lgan ruxoniylarga qarshi noroziligining yana ortishiga sabab bo’lgan edi.

Xalq shoir Mashrabni o’z vakili, yuragidagi xasrat-alam, orzu-umidlarini ifodalaydigan kuychisi sifatida sevardi. O’z dushmanlariga qarshi g’oyaviy kurashlarda xalq Mashrab nomidan ustalik bilan foydalanib, uni o’lmas komik qaxramon darajasiga ko’tardi.

Zolim xonu beklar, munofiq ruxoniylar hukmron bo’lib turgan va xalqning eng qoloq va nodon bir qismi ularga ko’r-ko’rona ishonib turgan bir davrda, ularga qarshi til tegizgan kishini Mashrab qismatiga o’xshash fojiali holat kutar edi.

Xalq o’z sevimli shoiri Mashrab obrazini nodonlikka, jaxolatga qarshi shafqatsiz kurashuvchi dovyurak, qo’rqmas komik qahramon qilib yaratdi.

Qo‘lyozma materiallardagi “Mullo va Mashrab”, “Eshon va Mashrab”, “Ulamolar va Mashrab”, “Mashrab va shayxulislom”, “Mashrab va Oppoxuja”, “Mashrab va qalandarlar”, “Avliyo bo‘lsa, turib ko‘rsin”, “Qilayi shar‘iya”, “Muazzin va eshak”, “Nomoz va eshak”, “Mashrabning qur‘on o‘qishi” kabi latifalarda Mashrab obrazi islom dogmatiklari va ruxoniylarni achchiq kulgi bilan fosh etuvchi isyonkor sifatida gavdalanadi.

Bu latifalarda Mashrab eshagini masjid mexrobiga, domla imom turadigan joyga olib borib bog‘lab qo‘yadi, eshagini muazzinga nisbat beradi. Bir qancha mullalar bir peshtoq ostida utirganida, Mashrab kelib, yuqoridan turib ular ustiga taxorat bo‘shatib yuboradi. Mullalar g‘azabga keladilar. Lekin Mashrab juda ustalik qiladi:

“Nega achchiqlanasizlar,— deydi u,— o‘zingiz aytursizki, suv yetti marotaba yumalasa, xalol bo‘lur deb, men oqizgan suv peshtoqdan tushguncha o‘n yetti marotaba yumalandi. Bu nechukdin xarom bo‘lur?”

Yoki bir kuni Mashrab “Qur‘on”ning saxifalarini chilimga solib chekadi va shu yo‘l bilan o‘zining “Qur‘on”ga qanchalik past nazar bilan qaraganini ko‘rsatadi. Ammo buning sababini so‘raganlarida, “ba‘zisi ko‘nglimga o‘ltirmadi, shuning uchun chekib, ko‘nglimga tortib oldim”,— deb qutulib ketadi. Bu latifalarda kulgiga ob‘ekt bo‘layotgan narsa — nodonlik, jaxolatning achchiq kinoya, piching bilan fosh qilinishidir.

Mashrab ruhoniylar bilan uchrashganda, ularni xuddi yuqoridagi kabi asosli dalillar bilan kunpayakun qiladi, Mashrab dalillari qarshisida ruhoniylar kulgili xolatga tushib qoladi.

“Podsho va Mashrab”, “Xokim va Mashrab”, “Bunday izzatni bulg‘amok kerak”, “Mashrab va xon”, “Bulg‘angan taxt”, “Xo‘ja Axrorniki”, “Mashrab va boyonlar” latifalaridagi kulgi ob‘yekti — feodal va ruxoniylarning ochko‘zligi, zulmi,

ichki dunyosining pastkashligi, ma'naviy tubanligidir. Bu latifalarda Mashrab obrazi nutqidagi so'z uyinlari asosiy fosh qiluvchi badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

“Xuja va Mashrab” latifasida Mashrab noxaq zulm tortayotgan mazlum qulning himoyachisi, najotkori bulib ko'rinadi.

Mashrab nomi bilan bog'langan latifalardagi komik qahramon obrazi va boshqa obrazlar feodalizm jamiyatidagi tarixiy shaxslar prototiplari asosida yaratilgan obrazlardir.

Masalan, “Xo'ja Axromniki” latifasidagi Xo'ja Axror XV asrda yashagan yirik feodal, eshonning o'zigina bo'lib qolmay, balki Naqshbandiy eshonlarining tipik vakilidirki, bu bilan xalq “dunyoning bevafoligi” xaqida diniy safsata sotib yurgan, biroq o'zlari hisobsiz mol-dunyo to'plab olgan va uni ko'paytirish sohasida har qanday jirkanch ishlardan qaytmaydigan ruhoniylar ustidan kuladi.

Mashrab nomi bilan bog'langan latifalarning ko'pchiligi keyingi vaqtlarda Nasriddin Afandi nomiga ko'chgan bo'lsada, ba'zilar hozirgi kungacha asli xolida aytilib keladi.

O'zbek xalq latifalaridagi komik qahramonlar orasida ko'p tarqalgani Nasriddin Afandi obrazidir.

Nasriddin Afandi juda ko'p xalqlar folklorida uchraydigan obrazlardandir. U Boltoq yarim orolidan tortib, Xitoygacha bo'lgan yerlardagi xalqlar latifalaridan keng o'rin olgan. U turklarda Xoja Nasriddin, Ozarbayjonda Mullo Nasriddin, turkman, tojik, O'zbeklarda Nasriddin Afandi nomlari bilan yuritiladi.

Nasriddin nomining xalqlar orasida keng tarqalishi va O'rta Sharq xalqlari bilan O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimgi zamonlardan beri davom yetib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning ijobiy natijalaridan biri edi.

Nasriddin shaxsiyati va shu nom bilan bogʻlangan latifalar uzoq zamonlardan beri juda koʻp olimlar eʼtiborini oʻziga jalb etgan.

Chet el olimlari bu obrazning vujudga kelishidagi tarixiy-ijtimoiy sharoit, sinflar orasidagi antagonistik ziddiyat kabi obʼyektiv sabablarga eʼtibor bermaydilar. Ular latifalar va uning komik qahramon ifodalagan gʻoyaviy mazmun, xalqchillik masalalariga eʼtibor bermaydilar, Nasriddin tarixiy shaxsmi, u qachon, qayerda yashagan, qaysi xalqning farzandi, uning nomi bilan bogʻlangan latifalar dastlab (qachon yaratildi, kim tomonidan toʻplandi kabi savollar ustida bosh qotiradilar. Bu olimlardan baʼzilari Nasriddin nomini arab komik qahramoni Juqo nomidan kelib chiqqan deb taxmin qilsalar, boshqalari eron qiziqlariga nisbat beradilar. Turk olimlari esa xozirgacha xam Xoʻja Nasriddin Turkiyaning Oksheorida tugilgan, qabri xam oʻsha yerda deb daʼvo qiladilar.

Turk latifalarining dastlabki nusxalarida saljuq sultonlari, mugʻul xonlari — umuman xon va beklar eslatilsa, XV asrdan boshlab, turk va ozarbayjon latifalarida Amir Temur nomi Xoʻja Nasriddin nomi bilan keyinroq birga tilga olinadi. Bu xol, shubxasiz, Temur istilosining natijasi edi.

Xoʻja Nasriddin xaqidagi izlanishlarning yakuni sifatida yirik sharqshunos olimi marhum V.A.Gordlevskiy “Latifalardagi shaxsning ismi toʻgʻrisidagi taxminlar qanchalik gumon, omonat boʻlmasin, bari bir xujjatlar Xoja Nasriddinni XIII asrga olib boradi”,— degan fikrni bayon qiladi. Yana shu olimning koʻrsatishicha, Temur va Nasriddin xaqidagi latifalar, xatto, Yevropa va Rossiyaga ham kirib borgan. Petr I davrida yashagan Dmitriy Kantimir “Turkiya tarixi” nomli asarida: “Afandining Temurga anjir sovgʻa qilishi”, “Afandining Temurga besh yuz bodring olib borishi”, “Uy solish uchun Afandining Temurdan oʻn tilla sovgʻa olishi” kabi uchta latifa haqida xabar beradi.

Latifa janrining kelib chiqishi, Nasriddin Afandi obrazining yaratilishi xaqida K.Davletov o'zining Nasriddin Afandi obrazi xaqidagi maqolasida muhim ilmiy masalalarni ko'tarib chiqdi. U o'z dalillari bilan turk olimlarining Xo'ja Nasriddin xaqidagi da'volarini asossiz ravishda rad etadi. K.Davletov bu komik obrazning maydonga kelish sabablarini ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlardan qidiradi. Uning kursatishicha, Nasriddin obrazi yuksak darajada rivojlangan shaxar folklori mahsuloti bu obrazning maydonga kelishi uchun XIII asrda Turkiyada hali ijtimoiy-tarixiy sharoit yetarli bo'lmagan, shuning uchun Nasriddin obrazining kelib chiqishi va rivojlanishi latifa janri taraqqiyoti bilan bog'liq. Bundan tashqari, latifa va komik qaxramon obrazi dastlab Turkiyada emas, balki O'rta Osiyo, Xuroson, Eron xalqlari orasida arab xalifalariga qarshi kurash kuchaygani davrlarda maydonga kelgan.

K.Davletovning bu fikriga to'la qo'shilish mumkin. Chunki O'zbek xalqi orasida tarqalgan latifalarning g'oyaviy mundarijasi K.Davletov fikrining to'g'ri ekanligini isbotlaydi.

V.A.Gordlevskiyning ko'rsatishicha, Turkiyada latifalar birinchi marotaba XVI asrda (1531 yilda o'lgan shoir Lam'iy tomonidan) to'plangan. To'plam arab, fors-tojik va boshqa xalqlar latifalarini o'z ichiga olgan katta kitob bo'lib, unda Xo'ja Nasriddin nomi bilan bog'langan to'rt latifa bor, xolos. To'plamdagi latifalarda Temur nomi ikki marta tilga olinsada, xali u Nasriddin bilan uchrashmaydi.

XVII asrdan boshlab Turkiyada yaratilgan latifalarda Nasriddin nomi keng tarqalgan. XVIII asrda u yerda "Xo'ja Nasriddin latifalari" to'planadi (bizdagi Mashrab, Aldarko'sa sarguzashtlariga o'xshash) va shu davrdan boshlab Yevropa olimlari ham unga e'tibor bera boshlaydilar. 1837 yilda Istanbulda birinchi marta "Xo'ja Nasriddin Afandi latifalari" nashr etiladi. Bundan keyin latifalar shu nom bilan bir necha marta bosilib chiqadi. Turkiyada bosilgan bu latifalar xojilar orqali va boshqa yo'llar bilan bo'lak mamlakatlarga, ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari orasiga ham tarqalgan bo'lishi ehtimol.

Turkiyada bosilgan latifalar va Tojikistonda ruscha nashr etilgan latifalardan bir qismi “Anekdoti o Xodje Nasreddine” nomi bilan 1957—1958 yillarda Moskvadagi Sharq adabiyoti nashriyoti tomonidan nashr etildi. Bu to’plamga I.Braginskiy soʻz boshi yozgan, V.A.Gordlsvskiyning “Xodja Nasreddin” maqolasi to’plam ohiriga ilova qilingan. To’plamga Turkiyada turli davrlarda nashr etilgan to’plamlardan 330 ta, 1947 yilda Tojikistonda nashr etilgan “Tadjikskiy narodniy yumor” to’plamidan 32 latifa kiritilgan.

Ozarbayjonda Mingreli shaxar o’qituvchisi Zaxarov latifalarni birinchi marta to’plab, 1889 yilda ruscha tarjimasi bilan nashr qildirgan. Unda turli temalardagi 64 latifa bor, xolos. 1903 yilda Kozon universiteti tomonidan ham “Latoifi Xo’ja Nasriddin Afandi” nashr etilgan. Bu kitobda 123 latifa bo’lib, u Turkiston viloyatida ko’p tarqalgan.

Revolusiyagacha Toshkentda ham turli nashrlar tomonidan Afandi latifalari bir necha marta tosh bosma yo’li bilan chop qilingan. 1926 yilda O’zarnashr yana latifalar to’plamini nashr etgan edi.

Shoʻro yillarida Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston respublikalarida latifalar to’plami bir necha martadan bosilib chiqdi. Bu latifalarning ko’pchiligi tradision syujetli bo’lib, ularning g’oyaviy mazmuni, voqeaning yechimi, komik xususiyati asosan bir-biriga yaqin bo’lsada, ularning har birida latifa aytuvchi xalqning til xususiyatlari, tarixi, urf-odati, madaniy saviyasi, turmush darajasi ham aks etgan.

1941 yilda O’zadabiynashr marxum Sharif Rizo (1910— 1943) to’plagan 256 latifani “Afandi latifalari” nomida oltita kitobcha qilib nashr etgan edi. To’plovchining bevaqt o’limi tufayli ish ohiriga yetkazilmay qoldi. Shundan beri qancha yillar o’tib ketdi, qanchadan-qancha o’zgarishlar bo’ldi. Xalqlar o’rtasidagi do’stlik adabiyot, folklor asarlariga ham barakali ta’sir etmoqda. O’zbek xalq latifalari

boshqa xalqlar orasiga, qardosh xalqlar tomonidan yaratilgan latifalar O'zbek xalqi orasiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Shunisi diqqatga sazovordirki, boshqa xalqlardan kirgan latifalar O'zbek xalqi orasida darhol Nasriddin Afandi nomi bilan bog'lanib qolmoqda.

1959 yilda yozuvchi Abdulla Qahhor ham bir qancha latifalarni O'z adabiy nashrda bostirdi. 1961 yilda Sobir Abdulla, Adxam Raxmat nashrga tayyorlab, O'z adabiy nashrda bosib chiqarilgan “Afandi latifalari” shunga qadar O'zbekiston va boshqa qardosh respublikalarda nashr etilgan latifalarni to'la o'z ichiga olgan deyish mumkin. Unda 508 ta latifa bor. 1959 yilda M.I.Sheverdin, Odil Raximiylar tarjimai bilan Toshkentda rus tilida ham “Neobichaynie priklyucheniya Nasreddina Afandi” nomi bilan bosilgan to'plamda esa 449 latifa bor.

Ammo xali ham O'zbek xalqi orasida aytilib yurgan latifalar to'la to'plandi deb bo'lmaydi.

Latifalarning janr sifatida qachon maydonga kelganini va ularning Nasriddin nomi bilan borlanishini ko'rsatadigan qadimiyroq manba bizning O'zbek adabiyotida xozirgacha ma'lum emas. Shuning uchun bu masalada K.Davletovning keltirgan dalillari bu sohadagi birinchi ilmiy tadqiqotdir.

Yozma manbalarning ko'rsatishicha, XIV asrdan boshlab to XIX asrgacha O'zbek xalqi orasida va ayniqsa, uning ziyolilari o'rtasida latifalar, mutoyibalar juda ko'p qo'llangan. Buni XV—XVI asr yozma manbalaridan — Jomiyning “Sil-silatul zaqob”, Alisher Navoiyning “Majolisun nafois”, “Muxokamatul lugatayn”, “Maxbubul qulub”, Davlatshox Samarqandiyning “Tazkiratush shuaro”, Xondamirning “Makorimul axloq”, “Xabibus siyar”, “Xulosatul axbor” asarlari, Zayniddin Vosifiyning “Badoeul vaqoe”, Xojaning “Miftoxil adl”, “Gulzor” asarlari, Xasan xoja Nisoriyning “Muzakkirul axbob” kabi asarlarida ko'p uchratish mumkin.

Bulardan tashqari, X—XIV asr O'rta Osiyo xalqlariga oid arab-fors tilida yaratilgan tarixiy manbalarda, shu davr mualliflari (Nizomiy, Sa'diy, Uband Zokoni, Xayyom, Samarqandiy va boshqalar) ning badiiy asarlarida latifalar, mutoyibalar anchagina bor.

Bu asarlar orasida eng xarakterlisi Zayniddin Vosifiyning "Badoeul vaqoe" sidir. Bu kitobdagi latifalar ikki-uch va bir necha kishi orasida qiziq suhbat vaqtida yuz bergan voqea sifatida keltiriladi.

Vosifiyning hikoya qilishicha, Navoiyning uyida bo'lgan bir kungi bazmda Navoiy xazillashib, boshqa mexmonlarga sarpo berib, shoir Binoiyga eshak tuqimini taqdim qilgan. Shu vaqtda Binoiy el qatori Navoiyga ta'zim qilib:

Mavlono amir hammaga odamlar kiyadigan kiyimlar berganlari holda menga e'tiqodlari baland bo'lganliklari uchun lutfu qaramlar qilib, o'z xos choponlarini yechib berdilar,— deb javob bergan.

Keyincha bu latifa "Podshoning Afandiga in'omi" kabi ishlanib ketgan. Ehtimol, bu syujet Binoiy ishlatguncha, Vosifiy o'z asarida keltirguncha ham xalq orasida latifa sifatida mavjud bo'lgandir. Yozma manbalar orqali yetib kelgan, syujet liniyasi va mazmuni bir oz o'zgarishlarga uchragan latifalar xaqida ham asosan shuni aytish kifoya.

Bizningcha, Nasriddin qachonlardir tarixiy shaxs bo'lsada, zamonlar o'tishi bilan asta-sekin u xalq tomonidan tobora ishlanib, mukammallasha borgan va epik komik qahramonga aylangan.

Xozirgi kunda O'zbek xalqi o'z komik qahramoni nomini deyarli hamma latifalarida Nasriddin Afandi yoki qisqacha Afandi deb ataydi.

Afandi so'zi grekcha bo'lib, bizdagi domla, mavlono, janob ma'nolarini ifodalaydi. Bu so'z O'zbeklarga turklar yoki ozarbayjonliklar orqali XIX asrda kelib

kirganmi yoki eramizdan ilgarigi IV asrlardagi grek-makedoniyalik istilochilar davrida o'zlashib qolganmi, aniq aytish qiyin.

Yozma manbalarining ko'rsatishicha, Afandi so'zi xuddi Nasriddin nomi bilan bir vaqtda XIX asrdan boshlab qo'lyozma, toshbosma asarlarda ko'proq uchraydi. Biroq ko'pchilik latifalarda afandi so'zi Nasriddin nomi o'rnida, uning sinonimi sifatida ishlatiladi.

XIX asrda yashab ijod etgan yoki ijodini shu davrda boshlagan ko'pgina xalqchil shoirlar o'z she'rlarining ayrim misralarida zamon xodisalariga bog'lab, latifaband qochirimlar ishlatganlar va "afandi" so'zini ham ba'zan qo'llaganlar. Shu jihatdan shoir Zavkinning "Ajab zamona" asaridagi quyidagi misralar diqqatga sazovordir:

Yo'qotdi chiqsa bozorga Afandi qopni,

Bo'lur kuzakkacha ma'lum, kim ura lofini,

Kelichasini sotib yeydi, balki sopini,

Bu yil xuruj qilib chiqdi qarz yopuni

Bu yerda "afandi" so'zi ikki xil ma'noni ifodalayapti: har bir ilimli kishi, har bir odam; afandi latifasiga qochirim. U latifaning mazmuni shunday:

Bir kuni Afandi un olmoqchi bo'lib uyidan pul, qop olib bozorga ketibdi-da, tezda qaytib kelibdi. Bu xolga ajablangan xotini surabdi:

- Dadasi, juda erta qaytdingiz-a?

- E xotin, bozorda, pul, qopini o'g'riga oldirganlar shunchalik ko'pki, hech yerga sig'maydi,— debdi Afandi.

- Ko'p bo'lsa, sizga nima, olgan uningiz, pul qani?

- Shuncha odam o'g'riga oldirsa, men qarab turarmidim, nodon, men pul bilan qopni bozorga chiqqan zamonim oldirganman, deb javob beribdi Afandi.

Bu xil misollarni Gulxaniyning “Zarbulmasal”idan, Muqimiy va boshqa shoirlarning she'rlaridan ko'plab keltirish mumkin.

Nasriddin afandi nomining O'zbek xalqi orasida keng tarqalishi, turli temadagi latifalarning nixoyatda ko'payishi xalqimizning O'rta va Kichik Osiyo, Eron, Xuroson, Kavkaz va boshqa yerdagi xalqlar bilan uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan madaniy aloqasining natijasidir.

Sharqning qadimgi madaniy xalqlari — arab, eron, xind, grek, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar orasida yaratilgan latifalar mazkur xalqlarning adib, shoirlari tomonidan yozma adabiyotga kirib, bora-bora Nasriddin Afandi nomi bilan bog'lanib, komik qahramonning tarixiy takomillashuviga va xalqlar orasida tarqalishiga sabab bo'ladi.

Nasriddin Afandi obrazi mehnatkash xalqning komik qaxramoni bo'lishiga qaramay, uning xarakterida bir-biriga zid keladigan qarama-qarshi tomonlar ham anchagina bor.

O'zbek xalq og'zaki ijodi epik asarlarida bir-biriga tubdan qarama-qarshi ikki xil xarakter: donishmandlik, zukkolik va “devona fe'llik ba'zi obrazlar takomilida ko'p uchraydigan narsa. Bu xalq latifalardagi komik dramoy obrazining goxo tuppattugri, ba'zan ma'joziy ma'no ifodalashidan tug'ilgandir. Ammo qanday bo'lsa ham latifalardagi soddadil, nodon, “axmoq” bo'lib ko'ringan komik obraz voqeaning rivojida o'ziga dushman bul gap boshqa kishilarni laqillatib, aldab, axmoq qilib, o'z ishini bitirib ketadigan uddaburon, bilimdon kishi bo'lib ketadi. Lekin o'sha komik obraz o'z shaxsiyati orqali turmushdagi biror ma'qul xodisa, ayanchli illatni fosh etadi. Feodallar, ruxoniylar va boy, savdogarlar to'qigan deb ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Agar Nasriddin Afandi obrazidagi ziddiyatlar chuqurroq muloxaza qilib ko`rilsa, bu ziddiyatlar ijtimoiy hayot, oilaviy turmush bilan bog`langan, hayotning o`zidagi ijobiy va salbiy xodisalar ta`sirida vujudga kelganligini payqash qiyin bo`lmaydi.

Ko`pchilik latifalarda Nasriddin Afandi suxbatdoshi (podsho, bek, qozi, mulla va boshqalar)ni voqea, xodisalar xaqidagi o`zining o`tkir muloxazalari, chuqur mantiqiy dalillari bilan kulgili holatda qoldiradi. Afandining raqibi uning bilim, tushunchasi qarshisida ojizlik qiladi. Bunday hollarda Afandi obrazi mehnatkash omma orzu- umidlarini ifodalaydigan ijobiy ideal bo`lib gavdalanadi. Biz to`plagan latifalarning “Afandi xukmdorlar va amal-mansab egalari orasida”, “Afandining din va uning namoyandalari, xurofiy xodisalarga munosabati”, “Afandi va boy savdogarlar” kabi bo`limlaridagi latifalar o`shanday xarakterdadir.

“Afandi oila va odamlar orasida” degan bo`limda “Afandining daraxt kesishi”, “Cho`mich qayerda edi”, “Bu gal xom bo`lsa ham mayli” kabi bir qancha latifalar borki, unda afandi nioyatda go`l, sodda, anqov, o`ta ketgan qoloq, kulgili holatdagi nodon kishi sifatida gavdalanadi. Afandi xarakteridagi bu salbiy xususiyatlar ham feodalizm sharoiti, islom dinining xaqqoniy safsatalari ta`sirida paydo bo`lgan illat va nuqsonlardir. Bular uzoq vaqt hukmronlik qilgan nodonlik, jaxolat natijasi hamdir.

Yana shu bo`limda bir qancha latifalar borki, ularda Afandi xotinidan aldanadi, uning xotini eriga vafosiz, xiyonatkor, makkora bo`lib ko`rinsa, eri — Afandi go`l, o`z uyida bo`lib o`tgan, yuz berayotgan voqealarni ko`rib-ko`rmaslikka soluvchi farosatsiz, xotinining oshkora va pinxoniy jinoyatlariga befarq qaraydigan noshud obraz bo`lib gavdalanadi.

Xuddi shunga o`xshash turmush temasidagi boshqa latifalarda esa Afandining xotini oqila, ruzg`orning bor-yo`g`iga qanoat qiladigan bardoshli, noshud erini jilovlab, ro`zgor tebratadigan tadbirkor, er va ro`zgoriga sadoqatli, pokiza axloqli

ayolu, Afandi o`jar, to`ng, xotiniga nisbatan farosatsiz, zolim erkakning tipik vakili sifatida namoyon bo`ladi.

Har ikkala guruhdagi latifalarda ham kambag`allik, ochlik, qashshoqlik natijasida yuz beradigan oila fojiasi aks etgandir.

“Oilada erning hukmron bo`lishi uning iqtisodiy jihatdan hukmron bo`lganligining natijasidir, erning iqtisodiy hukmronligi yo`qolishi bilan birga uning oiladagi hukmronligi ham o`z-o`zidan yo`qoladi.. Er oilada burjuadir, xotin esa proletariatning namoyandasidir”.

Sho`ro zamonida xotin-qizlar har tomonlama ezildi va xo`rlandi. Ayollarning istak-xoxishiga quloq soluvchi kishi yo`q edi. Xonu beklar, ruxoniylar, savdogar va boylar ularga saroy, koshonalarining bezagi, “ko`ngil xushligi” deb qarasalar, shu sharoitda o`sgan oiladagi ota-ona, aka-ukalar ham o`z jigarlariga shaxsiy boylik orttirish vositasi deb qaraydilar.

Mashaqqatli ro`zgor yukini o`z yelkalarida barobar ko`tarayotganini mehnat protsessida sinab ko`rgan mexnatkash insongina ayolni chin do`st, zaxmatkash o`rtoq vafodor yor deb bildi. Ammo pul-mol, amal-mansab hukmronlik qilib turgan bir davrda kambag`al insonning shaxsiy orzu-xavasi ro`yobga chiqarmidi? Puldorlar, amal-mansab egalarining “ko`ngil xushligi” ularga tug`onoq bo`lib, oraga judolik solar edi. Bu judolik oqibatida ma`suma, go`zal ayollar baxtsizlik va fojialarga uchrar edi.

Afandi obrazining qarama-qarshi tomonlari ham xalq maqollaridan birida “odobni beodobdan o`rgan” deyilganidek, ibratlidir.

“Agar muhabbatga asoslangan nikox axloq talabiga javob beradigan nikox bo`lsa, muhabbat so`nmasdan davom etadigan nikoxgina axloqqa javob beradigan nikox bo`ladi. Lekin kuchli individual jinsiy muhabbat turli individlarga, ayniqsa,

erkaklarda turlicha davom etadi va, modomiki, muhabbat xissi butunlay tugalgan yoki uning o`rniga yangi va extirosli muhabbat paydo bo`lgan ekan, er-xotinning ajralib ketishi er-xotin uchun ham, jamiyat uchun ham foydali ish bo`ladi. Kishilarni kuyish-chiqish mojarosi bilan bog`liq bo`lgan keraksiz iflosliklardan qutqarish kerak, xolos.

Nasriddin Afandining eng xarakterli xususiyati shundaki, u doim ko`pchilik mexnatkash omma tomonida, u xalqning himoyachisi, og`irini yengil, uzog`ini yaqin qiladigan ma`naviy tayanchi. Afandi obrazini komik qaxramon sifatida yaratgan xalq u orqali o`z turmushidagi hamma hodisalarni eng mayda ikir-chikirlarigacha aks ettiradi.

Afandi latifalari uzoq-yaqin o`tmishdami, xozirgi zamondami, bari bir, qachon yaratilgan bo`lmasin, uning ildizi hamisha xalq ichida. Afandi hech vaqt xalqdan uzilib qolmaydi. Shuning uchun ham bu obraz ijtimoiy ohangga, sinfiy xarakterga ega.

Hozirgacha latifalar qanday temada yaratilgan bo`lmasin, ularda hamisha zulm, nodonlik, jaxolat, ochko`zlik, yolg`onchilik, firibgarlik, ikki yuzlamachilik, xoinlik va boshqa shunga o`xshash salbiy xususiyatlarga qarshi nafrat-g`azab kulgi formasida aks etadi.

O`zbek xalqi kulgini, birinchidan, o`z xasratini aytish, ikkinchidan, xuquqini, erkini himoya qilish, qo`lga kiritish, saqlab qolish, dushmanlarini fosh etish quroli deb biladi. Shu sababdan afandi latifalarining hammasida axloq bilan axloqsizlik, yaxshilik bilan yomonlik o`rtasidagi kurash, xaqiqatning yolg`on — soxtalikka dashnom berishi, samimiylilikning riyokorlikdan, aql-idrok raxnamolik qilgan teran fikr, muloxazalarning sayoz, tuturuqsiz fikrlardan ustun chiqishi, adolat-insofning qachondir qaror topishi, yangilikning eslikka, ilm-ma`rifatning jaxolatga xamla qilishi aks etgandir.

Shuning uchun ham zamonlar o`lishiga qaramay, bu obraz nasldan-naslga o`tib kelmoqda va latifalar yaratilmoqda.

O`zbek xalq latifalarida kulgi bilan muloxaza yonma-yon yashaydi. Goh mulohaza kulgini, ba`zan kulgi mulohazani bosib ketadi. Ana shu kayfiyat Afandi obrazida mujassamlanib, u xalqning donoligi, xozirjavobligi aks ettirilgan o`lmas tipik obrazga aylangan.

Nasriddin Afandi obrazi xalq komik qahramoni bo`lgani uchun ham o`tmishda mehnatkash omma hamisha uni yordamga chaqirgan. Qaysi davr, qanday sharoitda bo`lmasin, afandi xalq bilan birga, unga hamdard, taskin beruvchi, yupatib ko`nglini ko`taruvchi, xursand qilib kuldiruvchi siymo sifatida xozir bo`ladi.

Bu obraz xalqchil bo`lgani uchun ham 1905 yildan boshlab, to hozirgacha Tbilisida ozarbayjon tilida nashr etilgan satirik jurnal “Molla Nasriddin” deb ataladi.

1924 yilgacha Samarqandda chiqqan “Mashrab” satirik jurnalida, 1923 yildan e`tiboran chiqa boshlagan satirik jurnal “Mushtum”da “Afandi sarguzashtlari” yoki “Zamonaviy latifalar” bo`limi bo`lgan va davom etib kelmoqda.

Nasriddin Afandi obrazi komik qaxramon sifatida bizning zamonamizda ham tirik, u doim o`zbek xalqi bilan birga mardona qadam tashlab bormoqda.

Zamonaviy latifalar tematika va g`oyaviy mazmuni jihatidan o`tmishda yaratilganlaridan tubdan farq qiladi. Zamonaviy latifalarning tematikasi kundan-kunga kengayib, uning badiiy yuksakligi, komikligi ham tobora ko`tarilmoqda.

Urush olovini yoquvchi imperializmning yovuz niyatlarini fosh etish, ayrim kishilar ongida saqlanib kelayotgan o`tmish sarqitlariga qarshi kurash masalasida Nasriddin Afandi obraziga xalqimiz hozir ham murojaat qilmoqda.

Biz to`plagan qo`lyozma materiallarning 3-tomiga kiritilgan “Afandi va Amerika kosmonavta”, “Afandi va Trumenning qizi”, “Afandi Parijga jo`namoqchi”, “Afandining Londonda qilgan vasiyati”, “Afandining Amerika boni bilan uchrashuvi” kabi xalqaro temalarda yaratilgan latifalarda chet el imperialistlarining ochko`zligi, ma`naviy tubanligi, axloqiy buzuvchiligi qattiq kulgi ostiga olinadi. Bu latifalarda tinchlik, xalqlar do`stligi kabi yaxshilik ideali aks etgan.

Ayrim kishilar ongida xanuzgacha saqlanib kelayotgan o`tmish sarqitlari: byurokratizm, poraxo`rlik, xushomadgo`ylik, xalq manfaatidan o`z shaxsiy manfaatini ustun qo`yish, kommunistik axloq prinsiplarini buzish, yolg`onchilik, ko`zbo`yamachilik, xotin-qizlarga boy-feodallarcha munosabatda bo`lish, chet el burjua madaniyati qarshisida ko`rko`rona sajda qilish kabi nuqson va illatlarni fosh etishda xalqimiz Nasriddin Afandi obraziga yangi-yangi mazmun, g`oya bermoqda.

“Afandi va qo`pol ashulachi”, “Afandi ispolkom qorovuli”, “Afandi komxoz xizmatida”, “Afandi va kolxoz raisi”. “Afandi vrach xuzurida”, “Ertaga keling”, “Afandining chigit ekishi”, “Afandi bir boshliqning shoferi” va boshqa shularga o`xshash latifalar fikrimizning dalili bo`la oladi.

O`zbek xalqi orasida Afandini sevmaydigan, latifa aytmaydigan kishi kam bo`lsa kerak. Tuy-tukinlar, sayillar, ulfatchilik ultirishlari, mexmondorchilik, dam paytlaridagi kulgilar orasida Nasriddin Afandi tilga olinmaydigan joy topilmaydi desak yolg`on bo`lmas.

Abbosiylar xalifaligida keng tarqalgan yumor Mavorounnaxr va Xuroson xalqlari ijodida katta o`rin egallaydi. Aynan o`sha paytlarda axmoqlar xaqida “Navodir – ul dijjux” nomli birinchi latifa to`plami bitilgan. Bashr ibn Brut (783 yil), Abu Nuvvas (814 yil), Al Xofiz (9 asr) shuningdek folklor qahramonlari sanalmish Jux baxlil, Tufayli nomlari o`sha davr bilan bog`liq. Aytish joizki sharq xalqlari folklorida bu nomlar katta rol o`ynagan.

Xalifalik davridagi satira va yumor rivojlanish sabablaridan biri bu arab xalifaligining sharqiy viloyatlardagi siyosiy yurishlaridir (Xuroson va Muvrounnaxr). Bu 8 asrning ikkinchi yarmida tojik xalqi tashkil topishining boshlanishidir.

13-14 asrlar Movorounnaxr va Eron xalqlari siyosiy va iqtisodiy munosabatlarida juda og‘ir davr bo‘ldi bu paytda mo‘g‘il davlati bosimi va amaldorlar o‘rtasida o‘zaro janjallar avj olib ketdi. Aynan temuriylar davriga kelib satira va yumor folklorda yozuvchi va shoirlar ijodida rivoj topdi. Adabiy sahnalarga ajoyib yumoristlar: Ubayda Zakoniy, Binoiy, Vasifiy va keyinchalik Mushfiqiylar chiqishdi. Bu paytda “Latoif ut tavoif” nomli tojik latifalaring to‘liq to‘plami tayyorlandi.

Demak satira va yumor rivojlanish tarixi shuningdek latifa tarixi shaxarlarning gullab yashnashi va siyosiy iqtisodiy xodisalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Hayotiy muammolar satira va yumordan o‘z javobini topdi.

Ta’kidlanganidek latifa yig‘ish islom dini kirib kelishidan avval boshlangan. Biroq latifa adabiy manbalarning tanqisligi sabab ushbu manbalar xarakteri xususida gapirish qiyinlik tug‘diradi. Shuning uchun ijod qilgan tarixchi va shoirlar asarlarida latifa xaqida so‘z yuritiladi.

Qadimgi manbalardagi latifalarda muomiladagi so‘z va shevalar xususiyati saqlanib qolmagan faqatgina “Jomiy ut xikoyat” (19 asr) to‘plamida shevalarning birmuncha namunalari aks ettirilgan. Latifalarni mustaqillikgacha uchga bo‘lishgan:

A. Ommabop

B. Ilmiy ommabop

D. Ilmiy.

Biroq xozirgacha latifaning to‘liq ilmiy nashri yo‘q. Ilmiy ensiklopediyalarda to‘plangan 4000 ga yaqin xalq latifalari o‘zbek folklori qo‘lyozma fondida chop

etilmay saqlanmoqda. Ushbu boy material latifaning to‘liq ilmiy to‘plami asosini tashkil etishi mumkin edi. Quyidagi olimlarning izlanishlari: A.P.Pelser, A.Potebnaya, A.Veselovskiy, F.N.Sunsov, P.Kuzmichskiy, V.E.Gusev, V.M.Sedelovnikov, U.B.Dolgat, X.Abdurazzoqov, K.Kishniks, N.Usmonov, N.A.Masuliy, Sh.Xolmuxammedov, R.Muqimov va boshqalar qaysidir ma’noda xalq anekdotlarini latifa janriga yaqinlashtirgan.

Demak bizning oldimizda latifa janri xususiyatlarini unga yaqinlaridan folklordagi turlaridan ajratishdek mushkul vazifa yotadi. Satirik ertaklardan latifa o‘zing hayoti syujeti tuzilishi va shuningdek badiiy yo‘nalishi so‘zamon tasviri bilan farq qiladi. Har bir latifaning negizidan xaqqiqiy hayotiy voqea yotadi va undagi voqealar qatnashchilar mukkamallashtirgan. Qaxramonlar xuning ma’nosiz qilmishlarining qisqa va lo‘nda tasvirlari latifa mazmuniga o‘ziga xos tiniq tasvir baxsh etadi. Latifaning asosiy xususiyatlari bu chegaralangan qisqa xajm to‘qima detallar bilan ifodalanishidir.

Hamma latifalarda ham syujet asosiy o‘rin tutavermaydi. Ular janr yo‘nalishi bo‘yicha kulgili, sarguzasht hikoyalarga o‘xshash bo‘ladi.

Shunday latifalar borki, ular hajmi bo‘yicha katta, biroq ularning syujeti qisqa epizod bilan cheklangan bo‘ladi. Bu turdagilari birmuncha detallashtirilgan bo‘ladi, lekin bu detallar asosiy o‘rin tutmaydi, ulardagi asosiy narsa shunchaki voqealar bo‘ladi xolos. Tuzilishi mazmuni jihatidan latifalar kichik satirik ertaklarga yoki xayratomuz yumoristik hikoyalarga yaqin bo‘ladi.

Bunday latifalarni xikoya va ertaklardan ajratish qiyin shuning uchun ko‘plab izlanivchilar ularni shunday ilmiy nomlar bilan ataydi: “Xikoyatu latifa”, “Satirik ertak”, Yumoristik hikoya, masal anekdot va boshqalar.

Bizning fikrimizcha xalq asarlarining janrini aniqlash uchun, ular qaysi davrga qaysi manbalarga mansub bo‘lmasin, asarlardagi matndan kelib chiqqan holda ish

tutish maqsadga muvofiq bo'lardi. Folklor turlari, shuningdek qadimgi Egipeda afsonalari, ezop masallari, xind hikoyalari, sasoniylar to'plamlari avloddan avlodgacha o'tib kelishi fikrimiz dalilidir. Ular o'zgargan va ulardan ko'pchiligi o'z janr xususiyatini (birinchi ma'nosini) yo'qotgan. Ushbu fikrlar isboti uchun latifaning yuzga yaqin varianti ko'rib chiqilgan. "Tuxfaiy – Xo'ja Nasriddin" ya'ni "Xo'ja Nasriddin sovg'asi" – Sharq va G'arb xalqlari adabiyotida va folklorida mavjud ushbu asar yuqoridagi fikrga misol bo'la oladi.

An'anaviy satirik ertaklar esa birmuncha katta xajmga va ma'lum bir syujetga ega bo'ladi. Syujet va kompozitsiyasi bo'yicha ular ma'lum darajada murakkab tuzilgan bo'ladi. Ularda voqealar tez-tez takrorlanib turadi, qahramonlarga ta'rif beriladi.

An'anaviy satirik ertaklarga qaraganda latifalarda dialog sezilarli darajada keng qo'llaniladi. Ularning ko'plari 2 – 3 yoki 4 ta dialog asosida quriladi. Va yana shunday latifalar ham borki, ular bir dialog va bir kishining suhbatiga asosida qurilgan bo'ladi. Bunday latifalarda dialog va manalog hikoyaning qisqa izoxidan keyin paydo bo'ladi.

Kutilmagan voqealar yoki qo'qisdan keladigan savol va javoblar latifalarning boshqacha xususiyatiga kiradi. Aynan shu vaziyatlarda tinglovchi qandaydir voqea hodisalarni kutadi. Natijada esa kutilgan holatdan yangi voqealar sodir bo'ladi.

Ertakdan farqli o'laroq latifalarda lirik xayolparastlik majburiyatlar va o'qtirishlar bo'lmaydi. Ularning bu epik yo'nalishi yashirin badiiy xarakterga ega bo'ladi.

Latifada fantastika elementi bo'lmaydi, biroq tasvirlanayotgan narsa qiziqroq chiqishi uchun bir necha marta bo'rtirilgan holatda aytiladi. Satirik ertaklarda fantastika elementlari juda ko'p uchraydi (afsungarlik, sexr-jodu). Ulardagi tasvirlanayotgan ertak va voqea tinglovchiga fantastik ertak turida yetkaziladi.

Latifada kirish chiqish qismlari har doim ham uchramaydi. Ertaklarga o‘xshash kirish qismiga ega bo‘lgan latifalar ham uchraydi. Masalan “Bir Afandi bo‘lgan ekan”, “Qadim zomonda bir norkoman yashagan ekan” va boshqalar.

Fikrimizcha latifaga doir bunday kirish qismi ertaklarning muayyan ta’siri ostida yuzaga kelgan.

Latifaning qahramonlari asosan ikki kishini (Er va xotin, Afandi va shox, dangasa va mehnatkash) yoki uch kishilik (Er xotin va qizi) tashkil etadi. Satirik ertakda esa 3 tadan 5-6 tagacha personajlar ishtirok etadi. Xalq latifalari qahramonlari avvalo aniq shaxslar bo‘ladi (Baxlul, Jo‘xa, Mullo Nasriddin, Mullo Mushfiqiy). Lekin ularning mashg‘ulotlari partret xarakteristikalarini ko‘rsatilmaydi. Latifa qahramonlari hech qachon real hayot qobig‘idan chiqmaydi. Yumor va xazl, so‘zamonlik, so‘z o‘yinlari, kulgu ularning asosiy qurolidir.

Satirik ertak qahramonlari esa boshqacha xarakterga ega bo‘lishadi. Bu yerdagi asosiy qahramonlar kal, yetim bola va uchinchi o‘g‘il. Bu qahramonlar avvaldan axmoq ko‘ringanlari bilan ohirida topqir va aqlli bo‘lib chiqishadi.

Latifa janri o‘zida badiiy to‘qima turlarini – metateza, metonimiya, metafora, qiyoslash, qo‘chma ma’nodagi (yashirin ma’no) turli xil so‘z o‘yinlarini o‘zida aks ettiradi.

Bunday so‘z o‘yini tasvirning asosiy vositasi hisoblanadi. So‘z o‘yini tinglovchi va so‘zlovchining u yoki bu so‘zning ko‘chma ma’nosiga bog‘lab qo‘yadi. Baribir satirik ertakni latifalardan farqlash qiyin. Bunda bizga tilni ifoda shakllarini (nutq shakllarini) puxta o‘rganish yordam beradi.

Latifa o‘zining ayrim xususiyatlari bilan masalga o‘xshab ketadi. Masal va latifa bir biridan tematika, xajm, maqsad va ma’no, obraz, badiiy ta’svir vositalarining

qo‘llanilish uslubi bilan farq qiladi. Masalni latifadan farq qiladigan asosiy xususiyati bu – allegoriya.

A.Potubnya xalq masallari va anekdotlarini taxlil qilib, shunday to‘xtamga keladi: masal qahramonlari so‘zlari boshqa qahramonlardan aytilishsiz, qochirimlarsiz masal bo‘lmas edi, shuningdek anekdot xam ko‘chma ma’nosiz anekdot bo‘lmas edi.

Latifa askiya bilan uzviy bog‘liq. Askiyada ham anekdotlarda ham donolik qisqalik mavjud. Unisida ham bunisida ham metafora metonimiya so‘z o‘yinlari keng qo‘llanilgan.

Xalq latifalari asosan 3 turda quriladi.

1. So‘z o‘yini
2. Donolik
3. Topqirlik

Bunday latifalarda qahramonlar qiyinchiliklarni ana shu xususiyatlar orqali yengib o‘tadilar va salbiy qahramonlarni kulgili holatlarga solib qo‘yadilar.

Tojik va o‘zbek latifalari rivojlanish tarixi mobaynida muntazam kuchaydi va o‘zgarib bordi. Ular ushbu xalqlarning hayot tarzi bilan farq qilsa ham, etnografik detallari, shakli, mavzusi, g‘oyasi, personaj va obrazlari, badiiy tasviri vositalari, ijrolari bilan mutlaqa o‘xshashdirlar.

O‘zbek latifalarida ommaviy antoganizm asosiy o‘rin egallaydi. Ularda mexnatkash xalqning jamiyatning yuqori sinfining noxaqliklariga qarshi nafrati, noroziliklari ifodalanadi. Amirlar, zodogonlar va boshqa yuqori sinf vakillari ustidan xalq latifalarida o‘tkir satirik kulgi ifodalanadi. Axmoq boshliqlarga Affandi, Mushfiqiy kabi xalq qahramonlari qarshi chiqishadi. Ular donoligi va topqirligi bilan ajralib turishadi.

O'zbek latifalarining e'tiborli jihatlaridan biri sodda va axmoqlar mavzusi hisoblanadi. Yumor ularning ko'plarida personajlarning mantiqiy xatolariga o'ylamay fikrlashlari va xarakat sodir etishlariga asoslandi.

Xalq latifalarida yaxshi yumor ostida yuvoshlik, qoloqlik, dangasalik, axmoqlik va shunga o'xshash insoniy kamchiliklar tanqid qilinadi. Bu yo'nalishdagi latifalar mohirlikni, mexnatkash xalq topqirligini, uning donoligi va iste'dodini, jamiyatdagi va mehnatdagi asosiy rolini ta'kidlaydi. Demak xalq latifalari bunday ta'sirli kuchga ega bo'lgan holda xalqning erksevarlik g'oyalarini, qarashlarini ifodalaydi.

Latifalarda xalq ongi va qobiliyati, topqirligi jamiyatning yuqori sinf vakillariga yo'naltirilgan bo'ladi.

Sharq satira va yumor tarixida xalifalik davrida katta rol o'ynaydi. Baxlul, Tufsimiy, Abunuvos kabi taniqli sharq latifasi qaxramonlari paydo bo'lishi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Ushbu obrazlar Mushfiqiy va Nasriddin obrazlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbek latifalarida Xo'ja Nasriddin katta o'rin tutadi. Xo'ja Nasriddin sharq xalqlari komik asarlarining taniqli qahramoni. Bu obrazning ommaviyligi, taniqliyligi o'tgan asrdayoq ko'plab olimlarning e'tiborini o'ziga tortgan. Xozirgi davrda ham sharq va Yevropa olimlari uni o'rganishdan to'xtaganlari yo'q.

III Bob. Latifada an'anaviylik va yangi davr latifalari.

Latifa xalq og'zaki poetik ijodining mustaqil janridir. Uning mavzu maydoni, g'oya va obrazlari, kompozitsion tuzilishi hamda syujet yo'nalishlari ham latifa mos va xos bo'ladi. Bunda an'anaviylik to'liq saqlanadi.

Latifada ham boshqa janrlarda bo'lgani kabi, hayot lavxalari o'z aksini topadi, bu real voqelik o'ziga xos tarzda tasvirlanadi.

Latifalar mavzu doirasida inson sha'ni, uning faxri, g'ururi, ko'zbo'yamachilik, riyokorlik, barcha illatlar haqida gap ketadi. Bu mavzular g'oyaviy jihatdan yo yumor yo'li bilan, yoki satira yoli bilan, satirik tarzda aniq to'xtamlarga kelinadi.

Bularning satirik deb belgilanadigan turlari yumoristik turlariga qaraganda ko'proqdir. Bu xil latifalarda fosh etish va tanqid etakchilik qiladi.

Hajmi jihatidan kichik bir latifa "Boyqush nima deydi" latifasida o'z xalqidan uzilib qolgan podsho ustidan qat'iy hukm chiqariladi. Bu qat'iy satirik fosh etish orqali chiqariladi.

"Boyqush nima deb sayrayapti? – deb podsho afandidan so'raydi.

"Boyqush aytdiki, – javob beradi afandi, – agar podsho zulmi shu xilda ketaversa, tez kunda shahar ham mening makonimga aylanadi.

Bundan ko'rinadiki tasvir o'ta qisqa bo'lishi barobarida o'ta kuchli fosh qilish kuchiga ega, unda faqat afandi mansub bo'lgan xalq fojiasi ema, podsho fojiasi ham yashirin tarzdi o'z ifodasini topgan. Shahar podshoniki, zulm davom etsa, u boyqush qo'lga o'tadi, demak, podsho bir shahridan mahrum bo'ladi. Bu yashirinlik syujet echimida, kutilmaganda yorqin namoyon bo'ladi. Boshlanma esa ohista, podshoning afandi bilan suhbatidan boshlanadi. Podsho oddiy kishi afandidan so'raydi, o'zi esa podsho, boshqacha aytganda, u – podsho bilishi kerak edi.

Afandi podsho nazarida zodagonlar tabaqasiga mansub emas, demak, unda bilim donishmandlik ham yo‘q.

Bu, albatta, podshoning qarashi. Past xalq, qora xalq, avom zehnli bo‘lmaydi. Faqat zodagonlar bu fazilat egasi. Mana shu qarash afandining javobi bilan chilparchin bo‘lib ketadi. Bu mitti latifada adolat g‘oyasi ilgari suriladi. Adolatsizlik faqat bir tomongagina fojia keltirmaydi, u butun jamiyatga katta zarar keltiradi.

Bu g‘oyaning ifodalanishida latifaga xos usul mavjud. Bu afandi nutqining mazmun-mohiyati va shu mazmunni uzatish intonatsiyasi. Albatta, bu usulda so‘z o‘yini etakchi jihat sifatida hal qiluvchi jihat sanaladi, ayni shu jihat tufayli g‘oya badiiy ifodalangan. Busiz obrazlilik yuzaga chiqmas edi.

Xalq o‘z kamchiligini o‘zi ochar ekan, bu fosh qilishda ham latifalarga murojaat qiladi. SHunday latifalarning biri qaynona va echki haqida.

Bir yigitning qaynonasini echki suzib o‘ldirib qo‘yadi. Dafn marosimi qatnashchilari ko‘tarib ketayotgan tobut orqasida bir yigit echki etaklab ketayotgan ekan. Bu g‘ayritabiiy holatga ko‘zi tushgan bir yo‘lovchi ham, o‘ta qiziqqanidan, marosim qatnashchilariga qo‘shilib olibdida, yonidagi kishidan sekin so‘rabdi. “Nega tobut ortidan echki etaklab ketilyapti?” Tobutdagi kampirni shu echki suzib o‘ldiribdi”. SHunda qiziquvchi shaxs echkini kim etaklab ketayotganini so‘rab, uni kuyov ekanligini bilgach, “sotmasmikin” deb so‘raydi. Javob beruvchi odam unga “tobut orqasida ketayotganlarning umidi ham shu” deb javob beradi.

Quyidagi latifa ham mohiyatan shu latifaga hamohangdir.

Afandi qozi ekan. U qaynonasini o‘ldirib qo‘ygan bir kishini so‘roq qiladi:

–Nega odam o‘ldirding, noinsof?!

–Qizini mendan chiqarib olib, bir boyvachchaga bermoqchi bo‘ldi. SHuncha yalinib –yolvordim, ellikboshi –oqsoqollarga arz qildim, natija chiqmadi. Nochor o‘ldirdim, qanday jazo berishsa roziman!

Bu javobni diqqat bilan eshitgan afandi:

–O‘limingdan oldin yana bir mardlik ko‘rsatmaysanmi?

Mening qaynamni ham o‘ldirib bersang bo‘lardi –da ...

Ikkinchi latifada o‘lim sababi ochiq aytilgan. Bekorga shunchaki o‘ldirish yuz bermagan. Bunda faqat qaynonaning niyatigina emas, oqsoqollar tutimi ham tanqid ostiga olingan.

Ular ham qaynona tarafida bo‘lganlar. CHunki qaynona o‘z qizini shu oqsoqollar tarafkash bo‘lgan boyvachchaga uzatilishi kerak edi.

Dunyo xalqlari og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan kuchli an’anaviylik jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda yangilanib bora beradi. Bu holatni o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarida ham kuzatish mumkin.

YAngi davr latifalari an’anaviy latifalar zaminida rivojlanib, tobora o‘z takomiliga tomon siljir ekan, o‘z davri tushunchalari doirasida taraqqiy etadi. Keyingi davr latifalar afandi latifalaridan ana shu yangi tushunchalarni qamrab olishi bilan ham farq qiladi. Nasriddin mulla Nasriddin bo‘lganda ham yangi ma’nodagi bojxona tushunchasidan uzoq bo‘lgan. Bu yangi davr latifalari leksikoniga nazar tashlanganda aniq ko‘zga ko‘rinadi. Deputatlik, texosmotr, rastomojka, litsenziya, sertifikat, spid, yutuqlar ko‘rgazmasi, avariya, razbor, fonogramma, elektr, gaz, taksi, bog‘cha, sud kabi qator tushunchalar yangi davr latifalarida faol qo‘llanuvchi tushunchalardir. Spid tushunchasi detal sifatida qo‘llangan latifa:

Odamlarimiz juda ehtiyotkor. Bir bemor akamiz shifokordan iltimos qilib qolibdi:

– Men o‘lsam, kasallik varaqamga spiddan o‘ldi, deb yozib qo‘ysangiz!

– Ie, nimaga endi? – hayron bo‘lib so‘rabdi shifokor.

– O‘lganimdan keyin xotinning orqasidan birov ergashib yurmaydi-da! – dermish akamiz.

Abdulla qiziqning quyidagi latifasida telefon, elektr, soliq tushunchalari to‘lov tushunchasi bilan bog‘lanib, yangi g‘oya uchun xizmat qilgan.

Xodim:

– Maoshimni oshirmasangiz bo‘lmaydi. Men bilan uchta tashkilot qiziqyapti, – debdi boshlig‘iga.

– Nahotki! – ajablanibdi boshliq ko‘zlarini pirpiratib.– Ular qanday tashkilotlar ekan?

– Telefon aloqasi, elektr tarmoqlari va soliq idorasi.

YAngi davr latifalarining personajlar tuzimini birgina Muhiddin Darveshov, Abdurahmon qiziq va Abdulla qiziqlar repertuari asosida quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Madaniyat xodimlari – rejissyor, aktyor...

2. Ilm-fan va ta’lim xodimlari – professor, assistent, o‘qituvchi, ruhshunos...

3. Ma’muriy organlar xodimlari – direktor, mudir, o‘rinbosar, kotiba...

4. Madaniy-maishiy xizmat xodimlari – sartarosh, qassob...

5. Savdo-moliya-iqtisod xodimlari – biznesmen, hisobchi, kassir...

6. Xalq-elat vakillari – evrey, chingachguk, chukcha...
7. Adabiyot xodimlari – shoir...
8. Tibbiyot xodimlari – jarroh, do‘xtir, shifokor...
9. Unvon-chin egalari – general...
10. Huquq-targ‘ibot xodimlari – deputat, tergovchi, melisa...
11. Hayvon dunyosi – sigir, it, qo‘y, fil, mushuk, tuyaqush...
12. San‘at xodimlari – skripkachi, udarnikchi, qo‘shiqchi...

Abdulla qiziq bisotidan personajlari madaniyat xodimlardan bo‘lgan latifalardan namunalar:

Teatrning qorovuli qiziqsinib aktyordan so‘rabdi:

– Ko‘pincha spektakllaring yarim soatda tugaydi-yu, ba‘zi kunlari tomoshalarining uch soatga cho‘zilib ketadi-ya! Buning sababi nimada?

– Aktyorlarimiz jonbozlik ko‘rsatib zalda oxirgi tomoshabin qolguncha spektaklda o‘ynashyapti-da!

Evropa xalqlarining ko‘pgina anekdotlarida ham ilm-fan xodimlarining parishonxotirligi haqida gap ketadi. Masalan, o‘z uyini topolmay qolgan Eynshteyn to‘p bo‘lib turgan odamlardan Eynshteyinning uyini so‘raydi. Odamlar “Eynshteyn o‘zingiz-ku”, deyishadi. Eynshteyn esa “buni o‘zim ham bilaman, lekin uyimni topalmayotibman” deydi.

O‘zbek latifalarida esa bir ish o‘z ob‘ektisiz ham boshlanishi mumkinligi yumoristik ifodalanadi.

Assistent professorning oldida hisob berayapti:

– Do‘xtir, operatsiya uchun hamma narsa tayyor, faqat bemordan darak yo‘q?..

– Hechqisi yo‘q, – dermish parishonxotir professor, – operatsiyani usiz boshlayveramiz.

Latifaning ikkinchisida ham sezilmaydigan parishonxotirlik bor, shifokor xushyor emas, o‘z ishini oldindan aniq belgilab olmagan.

Uncha kichik bo‘lmagan quyidagi latifada tansoqchi, biznesmen, toshbaqa, oshpaz qatnashadi. Bu erda toshbaqa potensial oziq. YAna bir predmet mavjud. Bu biznesmen – shefning bo‘yniga bog‘lanadigan galstuk.

YAshagan sayin yangi-yangi odamlarni ko‘raverarkansiz. Mana, yaqininginda ham “Novie russkie” degan gaplarni eshitardik. Bugun “YAngi o‘zbeklar” degan narsalar ham chiqib turibdi. Ular o‘zlarini biznesmenlar deb atashadi. Ana shunaqa biznesmen akalarimizdan biri restoranga kirib qolibdi. Endi gavdalarini qo‘yaverasiz, bir KaMAZga yuk bo‘ladi. Tanasi bilan kallasi birlashib, bo‘yni umuman yo‘q bo‘lib ketgan. YOnlarida bir emas ikkita “teloxronitel”, ya’ni tanqo‘riqchisi ham bor emish. Oshpaz kelib:

– Nima buyuradilar? – deb so‘rabdi.

Tanqo‘riqchilaridan biri sumkasidan toshbaqani chiqarib:

– Mana shuni pishirib kel! – debdi.

Oshpaz ketibdi, ammo bir soat o‘tsayam kelmas emishda.

Biznesmen akamiz tanqo‘riqchilardan biriga, xabar ol-chi, deganday ishora qilibdi.

Qo‘riqchi kirsam, oshpaz bir qo‘lida toshbaqa, ikkinchisida bolta bilan taxtaga uraverib, g‘arq terga botib ketganmish. Kallasini uzmoqchi bo‘larmish-u, ammo bolta rosa kelay deganda toshbaqa boshini kosasi ichiga yashirib olayotganmish-da!

– E, oshpaz bo‘lmay ket, shuni ham eplolmasang, bu yoqqa ber! – deb toshbaqani qo‘liga olibdi tansoqchi. So‘ng sanchqini olib toshbaqaning orqa oyog‘iga sanchibdi. Toshbaqa boshini chiqargancha qotib qolibdi. Soqchi bir zarba bilan uning bo‘ynini uzibdi. Qo‘riqchining harakatlarini og‘zini ochgancha kuzatib turgan oshpaz so‘rabdi:

– Aka, sizam oshpaz bo‘lib ishlaganmisiz?

– Yo‘q.

– Unda bu hunarni qaerdan o‘rgangansiz?

– Ertalab bizam shefning galstugini shunday bog‘laymiz, – dermish qo‘riqchi.

Latifalarda xuquq-targ‘ibot xodimlari faoliyati huquqbuzarlar bilan aloqadorlikda ochiladi. Bunda jinoyatchilar o‘ziga xos tarzda, odatda, realistik tasvirlanadi. Lekin yumor yo‘qolmaydi, aksincha yana ham tiniqroq ifodalanadi. Quyidagi latifada bu narsa o‘z ifodasini topgan.

Bizda hamma qiziqchi, aslida.

Sudda jinoyatchidan sudya so‘rayapti:

– Bu jinoyatni bir o‘zing qilmagansan, men bilib turibman. SHerigingning kimligini ayt?

Jinoyatchi pinak buzmabdi.

– O‘zingga javr qilma, oqibati yomon bo‘ladi, – sudya tushuntirgan bo‘libdi. – YOlg‘on ko‘rsatma bersang, aybing og‘irlashadi. YAXshisi sherigingning kimligini ayt!

– Meni kim deb o‘ylayapsiz, janob sudya, – dermish jinoyatchi. – O‘zimning tug‘ishgan ukamni sotganimdan ko‘ra o‘lib ketaverganim yaxshi.

Bu latifadagi yumor o‘zini o‘zi fosh qilish fonida yaratilgan. Jinoyatchi o‘z ukasining ham jinoyatchi ekanligini o‘zi oshkor etgan. Quyidagi latifada esa personaj o‘zini o‘zi to‘g‘ri ma’noda fosh etadi:

Kechagina soppa-sog‘ uyiga ketgan ulfati ertasiga bitta oyog‘ini bog‘lab kelibdi. O‘rtog‘i hayron bo‘lib undan so‘rabdi:

– Oyog‘ingga nima qildi?

– It tishlab oldi.

– Ie! La’nati itning egasini adabini berdingmi?

– Buning iloji yo‘q. CHunki it o‘zimga qarashli.

– Ie, o‘z iting o‘zingni tishladimi? Nahotki tanimasa?

– E, hidimdan biladi, xumpar, – javob qilibdi oshnasi oyog‘ini silab. – Kecha uyga ichmay borgandim, begona odam kelib qoldi shekilli deb, tizzadan oldi.

YAngi davr latifalarida xalqimiz hayotida oldindan mavjud bo‘lmagan, hozir ham to‘liq singib ketmagan, biroq tushuncha sifatida hamma uchun birdek anglanadigan, Evropa xalqlari uchun xos bo‘lgan “tansa”, ya’ni ikki qarama-qarshi jins vakilining juft bo‘lib raqsga tushishi bilan bog‘liq syujetlar ham paydo bo‘ldi. Abdurahmon qiziq repertuarida shunday hol ko‘rsatiladi.

“Bir yigit bir qiz bilan tansa tushayotgan ekan. Qarashsa, zalda ikkovidan boshqa hech kim qolmabdi. SHunda qiz “bu xona muncha sasib ketibdi, nima sasiyaptikin?” desa, yigit “hech narsa sasigani yo‘q, meni oyog‘im terlaydi” debdi. SHoshmay turing, oyog‘imni yuvib kelaman, deya chiqib ketibdi-da, zumda qaytib kelib, tansani davom ettirishibdi. Lekin sassiq hid oldingidan ham yomonroq taralibdi. Qiz “oyog‘ingizni yuvdingizmi?” desa, yigit “ha, yuvdim, paypog‘imni cho‘ntagimga solib oldim” debdi ko‘krak cho‘ntagini ko‘rsatib”.

Evropa xalqlari hayoti bilan tanishish tufayli, ularning san'atidan xabardorlik tufayli shunday latifalar vujudga kelgan. Agar Abdurahmon qiziqning o'zigina shu tur san'atdan xabardor bo'lib, butun xalq bexabar bo'lganda, bu latifa paydo bo'lmas edi, paydo bo'lganda ham birov tushunmas va shu tushunmaslik tufayli hech kim kulmas, demak, latifa o'zining ta'sir kuchi, g'oyasiga ega bo'lmas edi. Bundan ko'rinadiki, har qanday yangilikning vujudga kelishi jamiyat umumiy taraqqiyoti bilan zich bog'langan bo'ladi, jumladan, san'at asarlari ham.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab informatsiya almashinuvi kuchaya boshlashi tufayli dunyo bilan tanishuv ham nihoyatda kengaya boshladi. Bunda davriy matbuot, kino, radio, ayniqsa, televideniening roli benihoya ortdi. O'zbek xalqi butun Er shari xalqlari bilan tanishib bormoqda. Katta xalqlar emas, sayyorada yashovchi kichik xalqlar hayotlari bilan ham tanishmoqdalar. Abdulla qiziq bisotida bunga mos tushadigan latifalar anchagina. Ulardan biri quyidagicha.

Yana bir falokatdan keyin odamlar orolda to'planib turishsa, Chingachuk askarlari bilan kelib, ularni o'rab olibdi.

– Ayollarning hammasini o'ldiringlar! – debdi u askarlariga. – Erkaklarni qo'llarini bog'lab, qo'rg'onga haydanglar!

– Hov, o'rtoq Chingachuk, – debdi ayollardan biri jon holatda. Ayollarni o'ldirib nima qilasan, biror kunningga yarab qolarmiz. Yaxshisi erkaklarni o'ldir.

Qulpiddinxon bu gaplarni eshitib, darrov gap qotibdi:

– Chingachuk akamlar bitta gapiradi, har qanday ishlariga o'zimiz yarayveramiz, qo'rg'onga boshlang, Chingachuk aka!

An'anaviy latifalarda asosan bir obraz, ya'ni Nasriddin afandi obrazi etakchi obraz sifatida mavjud bo'lgan. Yangi hayotda mavjud bo'lgan barcha kasb egalarning obrazlari o'ziga xos holda qatnashadi. Bu latifalarda mansabdor, maktab

o'qituvchisi va o'quvchisi (bu mutlaqo yangi ma'noda, ya'ni ilgari madrasalar emas), shofyor, traktorchi, ona, shoir, shifokor, melisa, sartarosh, shuningdek, mashhur nomlar, ya'ni konkret tarixiy shaxslar – Tesha qiziq, Olimjon qiziq, Rasul qori, Akram qiziq, Oxunjon, Aliqul, Muhiddin Darvesh, Mansur, Obil askiyachi, usta Qurbon kabilarning obrazlarini uchratish mumkin. Abdulla qiziq ustozlar bisotidan foydalanganda, ularning o'zlarini latifa qahramoni qilib oladi. Teshavoy qiziq latifa qahramoni bo'lib kelishiga misol:

Qiziq bozorga kirib chiqsa, velosipedini o'g'ri urib ketganmish. Rosa bir oy melisaxonaga qatnabdi, o'g'rini topisholmabdi. Bir kuni qarashsa, Tesha qiziq yo'l bo'yidagi qabristonda o'tirganmish.

– Ha Teshavoy, tinchlikmi? – so'rabdi odamlar.

– O'g'rini ushlashlarini ko'rmoqchiman, – javob beribdi qiziq.

– Ie? – o'tkinchilar hayron bo'libdi. – O'g'rini mozorda ushlashadimi?

– O'g'ri o'lib shu erga kelganda ushlamasa, boshqa paytda ushlolmaydi, bu melisalar! – dermish qiziq.

An'anaviy latifalarda ishtirok etuvchi faol obraz bo'lgan Nasriddin afandi qassob bo'ladi. Yangi davr latifalarida shu qassobning o'zi mustaqil personaj sifatida keladi. Zamon va jamiyat taraqqiyoti tufayli ko'pincha mutaxassisliklar paydo bo'lishi barobarida latifalar ham boyib boradi. Masalan, sozanda umumiy tushuncha. Akbar qiziq repertuarida uning skripkachi, dutorchi, changchi, doirachi, udarnikchi kabi alohida-alohida olingan mutaxassisliklari latifa qahramoni bo'lib keladi. Udarnik degan so'zning o'zi ham latifa uchun yangilik.

Yangi davr o'zbek latifalari personajlaridan yana biri kotibadir.

Kotiba qiz bosh shifokorning oldiga yig'lab kiribdi:

– Anovi o‘rinbosaringiz meni o‘pib oldi!

– Endi sizam to‘g‘ri tushuning, – debdi shifokor salmoqlab. Hamma ishga o‘zim ulgurolmasam nima qilay?

Ko‘rinadiki, yangi davr latifalari o‘zining personajlar tuzimi bilan nihoyatda kengaygan. Bu personajlar lavozimlar bo‘yicha ham, mutaxassisliklar bo‘yicha ham rangba-rangdir. Ilgari mavjud bo‘lmagan direktor, mudir, o‘rinbosar, tanqo‘riqchi, tansoqchi kabi lavozim egalari yangi latifalar qahramoni sifatida faol ishtirok etadilar.

Yangi davr latifalarida hayvonot olamiga doir jonzotlar tarkibi ham g‘oyat kengaygan. Tuyaqush shunday jonzotlardan biri.

Ikki kilolik tovuq besh kilolik tuxum tug‘ibdi. Dunyo matbuotchilari to‘planishib, xo‘rozdan:

– Bu muvaffaqiyatga qanday erishdingiz? – deb so‘rashibdi.

– Tuyaqush qo‘limga tushsa, o‘ldiraman! – debdi xo‘roz jahl bilan.

Shuningdek, it, qo‘y, sigir va mushuk kabilar ham latifalar personajlaridir.

Xulosa

Shunday qilib latifa lug'aviy ma'nosi go'zal, yoqimli degan tushunchalarni anglatuvchi so'z bo'lib, folklorshunoslikda epik turga doir janrlardan birini bildiradi. Bu so'zning terminologik ma'nosidir. Janr ba'zi hollarda Nodira, Zarifa fjiba so'zlari bilan ham atalgan. Biroq eng maqbuli latifa so'zidir. Latifa umumbashariy janr bo'lib, u Dune xalqlari og'zaki ijodidagi faol janrlardan biridir. Hajmiga ko'ra latifalar kichik hikoyachalardan iborat bo'ladi. Hikoya qilishga asoslanadi. Ommaviy janr. Uni hamma ham aytishi mumkin. Alohida professional tayyorgarlikni talab etmaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida latifalarning asosiy qahramoni Nasriddin afandidir. Nasriddin afandi xalq timsoli. Unga xos bo'lgan fazilatlar xalq harakatlarida mavjud bo'lgan ijobiy xususiyatlardandir. U o'ta zehnli, donno, tadbirkor, so'zga chechan, har qanday og'ir damlarda ham xolatdan eson-omon chiqib keta oladigan uddaburon kishi obrazi sifatida gavdalanadi. Xalqqa xos bo'lgan o'ta soddalik ham uning xarakterida mujassamlashgan. O'zi yolg'on gapirib, o'zi ham ko'p qatori ishona boradi – o'z yolg'oniga o'zi ishonadi.

Nasriddin afandi o'zbek xalq latifalarida o'ta barqarorlashib qolganligi tufayli latifa so'zi bilan sinonim holiga kelib qolgan: latifa aytmok afandi aytmok bilan tenglashib qolgan.

Latifalar mazmun ifodasiga ko'ra satirik va yumoristik mazmunli bo'ladi. Jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy holatlar, tuzumlar bilan bog'liq kamchiliklar kulgi ostiga olinsa, satiriklik ustuvor bo'ladi. Ayrim shaxslar xarakterida, tutimida mavjud bo'lgan kamchiliklar tanqid ostiga olinsa, yumor ustuvor bo'ladi. Bu jihatdan yumoristik va satirik latifalar tilida ikki turli bo'ladi.

Latifalar g'oyasi doimo xaqiqatga qaratilgan bo'ladi. Hiyla-nayranglar fosh etiladi, laganbarborlik, ikkiyuzlamachilik, nodonlik, ma'rifatsizlik, insofsizlik maishiy tubanliklar qattiq tanqid ostiga olinadi. Bu bilan latifalar jamiyat rivoji uchun xizmat qiladi.

Latifalarning mavzu doirasi ham nihoyatda kengdir. Unda xalq hayotining barcha jabxalarida mavjud bo'lgan kamchiliklar kulgi tig'i ostiga olinadi beradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda latifalar ham takomillashib bora beradi. Endilikda, o'zbek xalq latifalari o'z ijrochilariga ega bo'ldi. Mashhur qiziqchilar, xalq latifalari qatorida, o'zlari ham bu janrda ijod qilmoqdalar. Muhiddin Darveshov, Abdulla va Abdulla qiziqqlar, televideniya faoliyat olib borayotgan ko'pgina ijodkor latifa janrining mavzu maydonini yanada kengayishiga o'zhissalarini qo'shmoqdalar.

YAngi davr o'zbek latifalari personajlar tizimi bilan bag'oyat kengaygan. Unda insonlar qatori hayvonot olami jonzotlari ham harakat qiladilar.

An'anaviy latifalarda sozandalardan udarnikchi, skripkachi obrazi bo'lmagan. Endilikda ular bor, damaschi, traktorchi, videochilarning obrazlari ham latifa qahramonlari tizimiga kirib keldi. Xalq-elat vakillari ham an'anaviy latifalarda uchramaydi. YAngi latifalarda evrey, chukcha, chingachuklar obrazlari ishtiroki mavjud. Jonzotlardan hozir tuyaqush obrazini uchraish mumkin. Bu esa an'anaviylikda bo'lmagan. Ma'muriy-boshqaruv vakillari sifatida podsho, vazir, qozilar qatoriga direktor, mudirlar, ilgari bo'lmagan xizmat ko'rsatish kishilari styuardessa, unvon-chin egalari general, huquq-tartibot organlari vakillari tergovchi, deputat kabi ko'pgina personajlar latifalar maydoniga kirib keldi.

Latifalarda YAngi tushunchalar o'rnini topdi. Bular texosmotr, rastomojka, litsenziya, sertifikat, fonogrammakabi so'zlar orqali ifodalanadi.

Latifalar geografiyasi ham kengaygan. Oltiariqdan Amerika, Singapur, Gollandiya, Afrikagacha borib etgan.

Xullas, latifa folklorning ommaviy janri. Jamiyat taraqqiyoti va turli yangilanishlar ta'sirida u ham yangilanib, tobora rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Aliev S. Vijdonlilar kulgisi. Jurnal. 1966, 1-s.
2. Burxonov I. Abdulla Qahhor komediyalarining adabiy manbalari haqida. Jurnal. "O'zbekiston" 1987, 11-s.
3. Do'stmatov H. Askiya-lingopragmatik tadqiqot ob'ekti sifatida, Jurnal, 2011, 4-s.
4. Efimov A.I. Stilistika russkogo yazyka. Moskva, 1969.
5. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1990.
6. Madiev S. Problema janra latifa. MT qand. diss. Samarqand, 1969.
7. Musaev Q. "Ayajonlarim" komediyasi tiliga doir mulohazalar. Jurnal. 1987, 4-s.
8. Nazarov M. Kulgi san'atining ustasi. Jurnal "O'zbekiston" 1987, 4-s.
9. Privalov B. Anekdoty Omirbeka i nekotorye voprosy satiriko-yumoristicheskogo v knige "Anekdoty folkloru Omirbeka". "Qaraqalpaqistan", 1977.
10. Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. Toshkent. 1965.
11. Sulanov A. Nasriddin Afandi va Aldarko'sa obrazlarining mushtarak ildizlari xususda. Jurnal. "O'zbekiston" 2005, 5-son.
12. Toshkanov S. Satira san'ati. Toshkent, 1984.
13. Turdiev SH. O'zbek adabiyotida satirik hikoya tarixidan jurnal. 1966, 1-s.

14. Xudoyqulov M. Satirik jurnalistikada obraz yaratish masalalari. Jurnal. 1971, 4- s.
15. SHarafiddinov O. Abdulla Qahhor. Toshkent. 1988.
16. SHodiev E. “Zarbulmasal” – masalalar to‘plami? Jurnal. “O‘zbek til va adabiyoti”. 1983, 3-son.
17. Quronov D., Mamajonov Z., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, 2010.
18. Qo‘shjonov M. Mohiyat va badiyat. Toshkent. 1977.
19. G‘afur G‘ulom. Kulgichilik to‘g‘risida Asarlar. O‘n tomlik. Sakkiz tom. Toshkent, 1976.
20. Hasanov M. Xamid Olimjonning kam ma’lum satirik she’rlari. Journ. 1969, 6-s.
21. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiylik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent. 1983.
22. Hoshimova M. Erkin Vohidov ijodida yumor. Jurnal. “O‘zbekiston” 2005, 2-s.